

Bosh ilmiy-metodik

markaz

**2022**

O‘quv-uslubiy majmua

**TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH  
JARAYONIGA KADRLAR  
BUYURTMACHILARINI JALB ETISH**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH  
BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**“Ta'lim sifati menejmenti” yo‘nalishi uchun**

**“TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH JARAYONIGA  
KADRLAR BUYURTMACHILARINI JALB ETISH”**

**moduli bo'yicha**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUА**

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ta’lim sifati menejmenti” qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishi o‘quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

- Tuzuvchilar:** **A.Xoliqov** – Kimyo fanlari doktori, professor,  
**A.Djuraev** – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).
- Taqrizchi:** **F.Nazarova** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy-metodik Kengashining qarori  
bilan nashrga tavsiya qilingan  
(2022 yil “24” dekbardagi 6/4-sonli bayonnoma)

## MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR .....	5
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI.....	154
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	20
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	38
VI. GLOSSARIY.....	87
VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI .....	94

# I. ISHCHI DASTUR

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimida malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masala bo'lib, oliy ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga o'quv-tarbiya faoliyatini tashkil etishning yangicha yondashuvlarini joriy etish, kadrlar tayyorlashda uzluksiz ravishda har tomonlama hamkorlik mexanizmini amalga oshirilishida buyurtmachilarini jalb etish muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim sohasi nafaqat jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotidagi eng muhim tarkibiy qism sifatida, balki mamlakatning kelajagi bog'liq bo'ladigan iqtisodiyot tarmog'i sifatida ham diqqat markazida turadi. Mazkur modul mana shunday rivojlanishning eng muhim yo'nalishi bo'lib, ta'lim xizmatlari bozoriga barcha kategoriyadagi ish beruvchilar tomonidan tobora o'sib borayotgan zamonaviy talablarga mos keluvchi kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashda o'rtaqa chiqadi. Oliy ta'lim sifati bilimlar darajasiga talablari bilan jips bog'langan bo'lib, u bugungi kun talablariga mos kelishi va o'qitishda kasbiy faoliyat mahoratining erishilgan darajasini aks ettirishi lozimligi kayd etiladi. Shuning uchun ham kadrlar buyurtmachilari – kasbiy ta'lim muassasalari doimiy ravishda ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatib borish va ta'lim xizmatlarini ularga mos holda boshqarishda foydalilaniladigan mexanizmlarning dolzarblashtirilishiga diqqatni qaratib borishlari zarur bo'lib, bu bilan oliy ta'lim dasturlarining rivojlantirilishiga hamda ularning talablariga moslashtirib borilishiga imkon hosil qiladilar.

Modul doirasida berilayotgan mavzular oliy ta'lim muassasalarida sifatni ta'minlash borasida rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish, ta'lim sifatini ta'minlash masalalari, ta'lim sifatini ta'minlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini jalb etish bo'yicha zaruriy yangi bilim, ko'nikma va malakalarni hamda kompetensiyalarni o'zlashtirishga xizmat qiladi.

### Modulning maqsadi va vazifalari

**Modulning maqsadi** oliy ta'lim muassasalari rahbar kadrlarining ta'lim sifatini ta'minlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini jalb etish, oliy ta'lim tizimida hamkorlikni tashkil etish, korxonalar o'rtasida sherikchilik munosabatlarini o'rnatish, ta'lim tizimi va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta'minlash, kadrlar buyurtmachilariga oliy malakali kadrlar tayyorlashda raqobatbardoshlikga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va istiqbolli yo'nalishlarni

belgilashga doir yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish asosida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

### **Modulning vazifalari:**

- oliy ta’lim tizimida hamkorlikni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari va korxonalar o‘rtasidagi sherikchilik munosabatlarini tahlil qilish;
- ta’lim tizimi va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta’minlash;
- oliy malakali kadrlar tayyorlashda ularning raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rgangan holda muammolarni hal etish va amaliyotda qo‘llash.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

“Ta’lim sifatini ta’minlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini jalg etish” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchilar:

- ta’lim sifatini oshirishning asosiy maqsad va vazifalarini;
- buyurtmachilarga sifatli kadrlarni tayyorlashda oliy ta’lim tizimining vazifalarini;
- o‘quv jarayoniga ishlab chiqarishdan tajribali amaliyotchilarni jalg etish mexanizmini;
- oliy ta’lim tizimida kadrlar buyurtmachilari bilan hamkorlikni ta’minlovchi asosiy yo‘nalishlarni;
- oliy ta’lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni amalga oshirish mexanizmini;
- buyurtmachilar bilan hamkorlik faoliyatini amalga oshirish xususiyatlarini **bilishi** kerak.
- o‘quv rejali va fan dasturlari mazmunini kadrlar buyurtmachilarini bilan hamkorlikda fan va texnologiyalarning so‘nggi yutuqlari asosida shakllantirish.
- oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari aloqalarini mustahkamlash hamda klaster usulida faoliyat yuritishini tashkil etish.
- kadrlar buyurtmachilari murojaati asosida oliy ta’lim muassasalari bazasida maqsadli ta’lim dasturlari, professional malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari, treninglar tashkil etish;
- ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularning natijalarini tijoratlashtirishda kadrlar buyurtmachilari, ilmiy-tadqiqot muassasalari o‘rtasida o‘zaro manfaatlil hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, biznes inkubatorlar va venchur moliyalashtirish faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha **ko‘nikma va malakalarni** egallashi zarur.
- raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda oliy ta’lim muassasalarini samarali innovatsion strategiyalar yo‘nalishlarini ishlab chiqish **kompetensiyalariga** ega

bo‘lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

“Ta’lim sifatini ta’minlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini jalb etish” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo’llanilishi nazarda tutilgan:

ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan;

o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, blis-so‘rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishslash, va boshqa interfaol ta’lim metodlarini qo’llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Ta’lim sifatini ta’minlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini jalb etish” moduli mazmuni o‘quv rejadagi barcha maxsus fanlar o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda rahbar kadrlarning umumiyligi tayyorlarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim sifatini ta’minlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini jalb etishning ahamiyati, mexanizmi, asosiy yo‘nalishlarini o‘rganish, amalda qo’llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

## MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot
1.	<p><b>Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ta’minlashda kadrlar buyurtmachilarini jalg etish mexanizmi.</b></p> <p>Ta’lim sifatini oshirishning asosiy maqsad va vazifalari. Sifatli kadrlarni tayyorlashda oliy ta’lim tizimining vazifalari. OTMda raqobatbordosh mutaxasislarni tayyorlashda buyurtmachilar bilan hamkorlik faoliyati. Ta’lim sifatini oshirishda ishlab chikarish korxonalaridagi hamkor mutaxasislarni jalg etishning ahamiyati. Ish beruvchi va OTMning integratsiyasi.</p>	2	2	
2.	<p><b>Oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari aloqalarini mustahkamlash hamda klaster usulida faoliyat yuritishini tashkil etish.</b></p> <p>Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ta’minlash jarayoniga ish beruvchilarni jalg qilishning ahamiyati. Oliy ta’lim muassasalarida raqobatbardoshlikni ta’minlashda tadbirkorlik faoliyatini oshirish.</p>	2	2	
3.	<p><b>Kadrlar buyurtmachilari murojaati asosida OTM bazasida maqsadli ta’lim dasturlari, professional malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari, treninglar tashkil etish mexanizmlari.</b></p> <p>Oliy ta’lim tizimida hamkorlikni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari va korxonalar o‘rtasidagi sherikchilik munosabatlari. Ta’lim tizimi va ishlab chiqarishning integratsiyasi. Oliy</p>	4		4

	malakali kadrlar tayyorlashda raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi omillar.			
4.	<p><b>Ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularning natijalarini tijoratlashtirishda kadrlar buyurtmachilari, ilmiy-tadqiqot muassasalari o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlik.</b></p> <p>Kadrlar buyurtmachilari bilan hamkorlikni tashkil etishning iqtisodiy mexanizmi va takomillashtirish yo‘llari. Oliy ta’lim muassasalarida ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish va marketing xizmatlarini yo‘lga qo‘yishdagi hamkorlik masalalari.</p>	4		4
	<b>Jami:</b>	<b>12</b>	<b>4</b>	<b>8</b>

## NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### **1-MAVZU: OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA KADRLAR BUYURTMACHILARINI JALB ETISH MEXANIZMI. (2 soat)**

Ta'lism sifatini oshirishning asosiy maqsad va vazifalari. Sifatli kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lism tizimining vazifalari. OTMdai raqobatbordosh mutaxasislarni tayyorlashda buyurtmachilar bilan hamkorlik faoliyati. Ta'lism sifatini oshirishda ishlab chikarish korxonalaridagi hamkor mutaxasislarni jalb etishning ahamiyati. Ish beruvchi va OTMning integratsiyasi.

### **2-MAVZU: OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA ISHLAB CHIQARISH KORXONALARI ALOQALARINI MUSTAHKAMLASH HAMDA KLASTER USULIDA FAOLIYAT YURITISHINI TASHKIL ETISH. (2 soat)**

Oliy ta'lism muasassalarida ta'lism sifatini ta'minlash jarayoniga ish beruvchilarni jalb qilishning ahamiyati. Oliy ta'lism muasassalarida raqobatbardoshlikni ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatini oshirish.

## AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

### **1-MAVZU: KADRLAR BUYURTMACHILARI MUROJAATI ASOSIDA OTM BAZASIDA MAQSADLI TA'LIM DASTURLARI, PROFESSIONAL MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH KURSLARI, TRENINGLAR TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI.**

**(4 soat)**

Oliy ta'lism tizimida hamkorlikni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari va korxonalar o'rtasidagi sherikchilik munosabatlari. Ta'lism tizimi va ishlab chiqarishning integratsiyasi. Oliy malakali kadrlar tayyorlashda raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi omillar.

### **2-MAVZU: ILMIY TADQIQOTLAR OLIB BORISH, ULARNING NATIJALARINI TIJORATLASHTIRISHDA KADRLAR BUYURTMACHILARI, ILMIY-TADQIQOT MUASSASALARINI O'RTASIDA O'ZARO MANFAATLI HAMKORLIK. (4 soat)**

Kadrlar buyurtmachilari bilan hamkorlikni tashkil etishning iqtisodiy mexanizmi va takomillashtirish yo'llari. Oliy ta'lism muassasalarida ilg'or

xorijiy tajribalarni joriy etish va marketing xizmatlarini yo'lga qo'yishdagi hamkorlik masalalari.

## O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 9-son, 225-modda.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 yil. 11-12-son, 295-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2000 yil 25 iyuldag'i «Rasmiy davlat hujjatlarini tayyorlash, hisobga olish, saqlash, topshirish hamda ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi 283-son qaror qabul qilindi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 iyuldag'i "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 2 noyabrdagi "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1426-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil maydag'i "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1533- sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1989-son Qarori.
8. Karimov I.A. O'zbekiston erishgan yutuq va marralar — biz tanlagan islohotlar yo'lining tasdig'idir. 22-jild. – T.: «O'zbekiston», 2014. –80-b.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 24 iyuldagи «Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi PF-4456-son farmoni;

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi «Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4732-son farmoni;

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagи «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi PF-4958-son farmoni;

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 dekabrdagi «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim hamda oliy mala kali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tizimini takomillash tirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 365-son qarori;

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi «Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida» 2001 yil 16 avgustdagи 343-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida»gi 3-son qarori;

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20 avgustdagи «Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 242-son qarori;

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 25 avgustdagи «O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga pedagogik faoliyat samaradorligi va sifatini oshirish bilan bog‘liq o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 246-son qarori

### **Internet saytlar:**

1. <http://www.zionet.uz>
2. <http://uz.denemetr.com/download/docs-229149/768-229149.doc>
3. <http://www.nasa.gov/statistics>
4. <http://www.security.uz>
5. <http://www.cert.uz>
6. <http://www.uzinfocom.uz>
7. <http://idum.uz/archives/9376>
8. <http://gtmarket.ru/ratings/e-government-survey/info>
9. <http://egovernment.uz/uz>
10. <http://www.tadviser.ru/index.php>




## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

### “Nima uchun?” texnologiyasi.

Nima uchun sxemasi mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi sxemadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib muammoni hal etish qiyin. Muammoni yechimini topish uchun uni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va yo'qotish talab etiladi. Tinglovchilarda sabab-oqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu sxema tinglovchilarda aynan ana shu xususiyatni rivojlantiradi. Tinglovchilarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.



### “Nima uchun”? sxemasiga asosan tinglovchilar faoliyatini tashkil etish ketma-ketligi

#### 1-bosqich


Tinglovchilarni “Nima uchun”? sxemasini tuzish qoidalari bilan tanishtirish

#### 2-bosqich


Yakka tartibda (juftlikda) muammo shakllantiriladi. Nima uchun? so'rog'i bilan strelka chiziladi va savolga javob yoziladi. Qayta-qayta “nima uchun” degan savol berib boriladi. Muammoni keltirib chiqargan ildiz yashiringan sababi topilguncha davom ettiriladi.

**3-bosqich**

Tinglovchilar kichik guruhlarga birlashtiriladi, o‘z sxemalarini taqqoslashga va qo‘sishma kiritishga imkon yaratiladi. Umumiy sxema jamlanadi.

**4-bosqich**

Natijalar taqdimoti uysushtiriladi. Faoliyat natijalari baholanadi.

**«Nima uchun?» texnologiyasining sxemadagi ko‘rinishi****“Nima uchun”? sxemasini tuzish qoidalari**

1. Qanday pictogrammadan foydalanishni o‘zingiz hal etasiz.
2. Mulohazalarning sxematik ko‘rinishi qanday bo‘lishini o‘zingiz hal etasiz.
3. Har bir strelka fikr yo‘nalishini ko‘rsatishi lozim.

**“VEER” texnologiyasi.**

Bu texnologiya murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

“VEER” texnologiyasi umumiyl mavzuni ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

“VEER” texnologiyasi mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin:

- boshida: o‘z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o‘rganish jarayonida; uning asosiyalarini anglab yetish;
- yakunlash bosqichida; olingen bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik - biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

Fazilat-ijobiy sifat.

Nuqson-nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa-muayyan bir fikrga, mantiqiy, qoidalar bo‘yicha dalildan natajaga kelish.

### **FSMU texnologiyasi.**

- (F) - fikringizni bayon eting.
- (S) - sababini ko‘rsating.
- (M) - misol (dalil) keltiring.
- (U) - umumlashtiring.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, babs- munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminar yakunida (tinglovchilarning o‘quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda tinglovchilarning, o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatini o‘rgatadi.

Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa ifoda etib, tasdiqlovchi dallillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

#### **1-bosqich.**

-o‘qituvchi tinglovchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo‘lgan muammoni, yoki o‘rganilgan bo‘limni belgilab oladi;

-o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va niyoyat dars oxirida jamoa bo‘lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma’lumot beradi:

-mashg‘ulot davomida har bir talaba o‘z fikrini erkin holda to‘liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o‘tiladi.

## **2- bosqich.**

Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi:

F- fikringizni bayon eting.

S - fikringizni bayon etishga sabab ko‘rsating.

M - ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qozozdagi FSMU ning 4 bosqichini o‘z fikrlarini yozma bayon etgan holda to‘latadi.

## **3 - bosqich.**

-Har bir tinglovchi o‘z qog‘ozlarini to‘latib bo‘lgach, O‘qituvchi ularni kichik guruhlarga bo‘linishlarini iltimos qiladi yoki o‘zi turli guruhlarga bo‘lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlarga bo‘lib yuboradi:

-o‘qituvchi har bir guruhda FSMU texnologiyasining 4 bosqich yozilgan katta formatdagi qog‘ozlarni tarqatadi:

-o‘qituvchi kichik guruhlarga har birlari yozgan qog‘ozlardan fikr va dallillarni katta formatdagи umumlashtirgan holda 4 bosqich bo‘yicha yozishlarini taklif etadi.

## **4 - bosqich.**

-Kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o‘zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a’zolarini tanishtirib o‘tadi. Guruh a’zolarining barcha fikrlari o‘rganilgach, kichik guruh a’zolari ularni umumlashtirishga kirishadi:

-guruh a’zolari FSMUNing 4 bosqichini har biri bo‘yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko‘radilar:

-fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o‘z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

## **5- bosqich.**

-Kichik guruhlarda umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar:

Guruh vakili har bir bosqichni alohida o‘qiydi iloji boricha izoh bermagan holda. Ba’zi bo‘limlarni isbotlash ya’ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o‘tishi mumkin.

## 6 - bosqich.

- o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi;
- quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojat qiladi:
- ushbu texnologiyadan nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o‘rgandingiz?
- ushbu texnologiyani o‘quv jarayonida qo‘llanilishi qanday samara berdi?
- ushbu texnologiyani qo‘llanilishi tinglovchilarda qanday hislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?
- ushbu texnologiyaning o‘quv jarayonining qaysi bosqichida qo‘llanilgani ma’qul va nima uchun?
- ushbu texnologiyani dars jarayonida qo‘llanilishi tinglovchilarga nima beradi va nimaga o‘rgatadi?
- ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o‘tkazish mumkin?
- ushbu treningda asosiy vazifa nimadan iborat va hokazolar.

### III. NAZARIY MATERIALLAR

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### **1-MAVZU: OLIY TA'LIM MUASSASALARDA TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA KADRLAR BUYURTmachilarini JALB ETISH MEXANIZMI.**

**Reja:**

**1.1. Ta'lism sifatini oshirishning asosiy maksad va vazifalari. Cifatli kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lism tizimining vazifalari.**

**1.2. Oliy ta'lism muassasalarida raqobatbordosh mutaxassislarini tayyorlashda buyurtmachilar bilan hamkorlik faoliyati.**

**1.3. Ta'lism sifatini oshirishda ishlab chikarish korxonalaridagi hamkor mutaxassislarini jalb etishning ahamiyati. Ish beruvchi va OTMning integratsiyasi.**

**Tayanch iboralar:** ta'lism sifati, kadrlar buyurtmachilari, sifat menejmenti, ilmiy-pedagogik kadr, ta'lism xizmatlari.

##### **1.1. Ta'lism sifatini oshirishning asosiy maqsad va vazifalari. Sifatli kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lism tizimining vazifalari.**

OTMdakta ta'lism sifatini oshirishning asosiy mexanizmi o'qitish sifati va ta'lism xizmatlari sifatiga bog'lik. Kadrlar buyurtmachilari raqobatbordosh pozitsiyani egallashda innovatsion yondashuvni talab etmokdalar. Ushbu masalalarni amalgalashda O'zbekistonning oliy ta'lism tizimi milliy innovatsion tizimni shakllantirish, innovatsion muhitni yaratish, yangicha fikrlash, yukori madaniyatni shakllantirishda yetarli hissasini qo'shishi uchun kerakli salohiyatga ega.

Bugungi kunda respublikamizda oliy ta'lism tizimini rivojlantirishning quyidagi usutvor yo'nalishlari bo'yicha vazifalar yechimi belgilangan:

- oliy ta'lism tizimini isloh qilishning zamонавиъ bosqichida innovatsion jarayonlarni qo'llash va amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;

- respublikada orliy ta'lism muassasalarini samarali boshqarishning jaxon standartlariga asosan ta'linda sifat menejmenti usullarini samarali qo'llash;

- global mashuv va milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion texnologiyalarni qo'llash asosida ta'lism tizimi sifatini oshirish va raqobatbordosh kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lism muassasalarini samarali innovatsion strategiyalar yo'nalishlarini ishlab chiqish;

- respublika oliy ta'lism muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirishda samarali xorijiy tajribalarni o'r ganishning ijobjiy natijalarini respublikada qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

- oliy ta'lism tizimida me'yoriy-huquqiy xujjalarni takomillashtirishda erishilgan tajribalarni yanada ommalashtirish asosida ta'lism sifatini oshirish

bo‘yicha tavsiyalar va ishlanmalar ishlab chiqish;

- milliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashtirish sharoitida respublikada oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy ta’lim xizmatlari turlarini kengaytirish;

- oliy ta’lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish asosida fan va ishlab chiqarish o‘rtasida integratsiyani yanada kuchaytirish;

Ma’lumki, ta’lim jamiyat rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Qanday sohada bo‘lmasin, yuqori bilimga ega mutaxassislar ilmiy-tadqiqot ishlanmalari bilan shug‘ullanish, yangi mahsulot turlarini yaratish va texnologiyalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Jahondagi globallashuv jarayonlari va kompaniyalar o‘rtasidagi mavjud chuqur raqobat muhiti mutaxassislarni ham favqulodda shunga tayyor bo‘lishlarini talab etadi. OTMlarga shunday bozor omillari ta’sir ko‘rsatadiki, birinchidan, korxona va tashkilotlar tomonidan bitiruvchi mutaxassislarga talab shakllansa, ikkinchi tomondan, abiturientlarning oliy o‘quv yurtiga kirish uchun shart-sharoitlari shakllanadi. Shunga ko‘ra, o‘z navbatida, o‘quv yurti kasbiy sohada zaruriy tayorgarlikka ega bitiruvchilar bilan ta’minalash bo‘yicha mehnat bozoriga va kadrlar buyurtmachilariga ta’sir ko‘rsatadi. Bunga bog‘liq holda mutaxassislari talab doimo o‘sib boradi.

OTMlar oldiga qo‘yilgan vazifalarga erishish uchun bitiruvchi mutaxassislarni samarali bulishi uchun quyidagi masalalarni hal etilishini talab qilish maqsadga muvofiq, deb xisoblaymiz.

- korxonaning talab qilingan malakali va zarur hajmdagi ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojlarini ta’minalash;

- xodim va umuman korxona jamoasi salohiyatidan to‘liq va samarali foydalanish;

- serunum mehnat, hamjihatlik darajasining yuqoriligi, motivatsiya, o‘zini intizomga bo‘ysundirish, xodimda o‘zaro aloqa va hamkorlik qilish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun sharoit yaratish;

- xodimlar mehnatining mazmunli tashkil etish, mehnat sharoitlari, mashg‘ulot turi, kasbiy-malakaviy va xizmat bo‘yicha ko‘tarilish imkoniyatlari va h.k. borasidagi qiziqishlari, xohish-istiklari va ehtiyojlarini amalga oshirilishini ta’minalash;

- ishlab chiqarishning vazifalari va ijtimoiy vazifalarni muvofiqlashtirish (korxona manfaatlari va xodim manfaatlarini, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini muvozanatlash).

Ish beruvchilarni eng avvalo, oliy o‘quv yurti bitiruvchilari ko‘rsata oladigan xizmatlar va bajara oladigan ishlar sifati qiziqtiradi. Oliy ta’lim muassasasi ta’lim tizimini nazorat qiluvchi organlar tomonidan ishlab chiqilgan davlat ta’lim standartlariga to‘liq mos kelishi va yuqori samaradorlik ko‘rsatkichlariga ega

bo'lishi, lekin ish beruvchilar, talabalar va ularning ota-onalari kasbiy tayyorgarlik sifati standartlariga bo'yicha tasavvurlarga mos kelmasligi mumkindir.

Oliy ta'lim muassasalari uchun agar bitiruvchilarni ishga qabul qilgan korxona-tashkilotlarning mutasaddilari oliy ta'lim muassasasiga nafaqat bitiruvchilarning tayyorgarligi, tashkilotchilik qobiliyatlarini baholash bo'yicha taqrizlarni, balki istiqbolli texnologiyalar va yangi texnika sohasida bitiruvchinig bilimlari darajasiga ularning talablarini ham jo'natadigan bo'lsalar, ancha yengil bo'lган bo'lur edi.

Bu bir tomondan, bitiruvchilarning tayyorgarligini baholashning ob'ektivligini oshirgan, boshqa tomondan esa oliy ta'lim muassasalari (fakultetlar va kafedralar)ni talabalarni o'qitish sifatini oshirish maqsadlarida o'quv jarayonini tuzatishga (shu jumladan, moddiy-texnik asosni takomillashtirishga ham) majbur qilgan bo'lar edi.

Bundan tashqari, o'z darajasini oshirish uchun oliy ta'lim muassasasi tarmoqni rivojlantirish istiqbollarini o'rganishi va bashorat qilishi, ta'lim dasturlarini davriy ravishda agarda bu davrdagi ta'lim dasturlaridagi o'zgarishlar hatto ta'lim xizmatlari iste'molchilarining talablari bilan mos kelmasa ham tuzatib borishi kerak.

Shunday qilib, fakultetlar va kafedralar o'qitilayotganlar kontingenti, tayyorgarligi darjasи, iste'molchilarining talablari, ularning bitiruvchilar tayyorgarligi sifatini baholashlari haqidagi axborotni olish, shuningdek, tarmoqda mutaxassislikning rivojlanishi istiqbollarini taroziga solib ko'rish bilan ta'lim dasturlarini tuzatishlari va mos holda ta'lim jarayonini tashkil etishlari lozim.

Mana shunga parallel ravishda moddiy-texnik asos ham rivojlantirib borilishi va oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadr (IPK)larini tayyorlash hamda malakasini oshirish amalga oshirib borilishi kerak. Shuningdek, malaka oshirish(stajirovka) joyi va lavozimlarini belgilash maqsadlarida ish beruvchilar bilan hamkorlikda ularning malakasini oshirish rejalarini tuzib chiqish ham maqsadga muvofiqdir.

## **1.2. OTMda raqobatbordosh mutaxassislarni tayyorlashda buyurtmachilar bilan hamkorlik faoliyati.**

OTMning urni kadrlar buyurtmachilari bozorida uning raqobatbordosh bo'lishini, o'z raqobat urnini mustaxkamlanishiga olib keladi. Asosiy maqsadi - zamonaviy talablariga javob bera oluvchi oliy ma'lumotli mutaxassislarning tayyorlashdan iborat. O'zi tanlagan mutaxassisligi bo'yicha mukammal bilimlarga kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lган, shu bilan birga ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ahloqiy sifatlarni o'ziga singdirgan, Respublika taraqqiyotiga o'z xissasini qo'sha oladigan kadrlarga talab bugungi kun ish beruvchilarini ehtiyojidir.

Fan va texnikaning jadal rivojlanishi mustaqil mamlakatimizda barcha soxani tubdan o‘zgartirib yubormoqda. Hozirgi zamon ishlab chiqarishidagi ko‘pgina kasblar faqat ma’lumotli kishilargina emas, yuksak rivojlangan, ijodiy qobiliyatga ega mustakil fikrlay oladigan kasb egalarini jalb qilishni talab qilmoqda.

Asosiy vazifamiz - bu yuqori kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega, puxta o‘ylangan, har tomonlama to‘g‘ri karorlar qabul kila oladigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan kasb egalarini yangi tarkibini shakllantirishdan iborat. Buning uchun oliy ta’lim muassasalari oldida mamlakatimizdagi amalga oshirilayotgan uzlusiz ta’lim tizimining ko‘p qoidalarni o‘zgartirilishini, ilmiy asoslangan yangi tizimning shakllanishini va ishlab chikarish korxonalar bilan xamkorlikni keng yo‘lga qo‘yishda nazariy bilimlarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni taqozo etadi.

Yoshlarga sifatli ta’lim berish bilan birgalikda bevosita ishlab chiqarish korxonalar bilan bog‘lashda murakkab vazifalarini hal etishda ta’lim beruvchining g‘oyaviy e’tiqodi, kasb mahoratiga, san’ati, iste’dodi va madaniyatiga bog‘liqdir.

Ma’lumki, ta’lim natijasi bo‘lgan mahsulot, ya’ni yosh kadrlar iste’molchisi ta’lim xizmatlaridan foydalanuvchilar bozori hisoblangan yuridik va jismoniy shaxslardir. Dunyo va mamlakatimiz ta’lim xizmatlari bozori holati tahlilida nafaqat ta’lim sifati balki, ta’lim xizmatlarini tashkil etish, iste’molchi talablarini inobatga olish zurur. Mamlakatimizda ta’lim sifati oshirishda va bozor talablarini ta’minlashda quyidagilarni amalga oshirish lozim :

- ta’lim xizmatlarini tashkil etishda bozor talablaridan kelib chiqish;
- ta’lim xizmatlari turlarini iste’molchi bilan o‘zaro bog‘lash;
- ta’lim muassasalari va iste’molchilar o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmini doiimiyl olib borish;
- ta’lim muassasalarining o‘zaro kadrlar buyurtmachilari bilan hamkorlik samaradorligi ta’minlashni tashkil etish.

Ta’lim sifatiga baho berishda unga ta’sir etadigan omillarni ta’lim tizimida ishtirok etuvchi sub’ektlar bo‘yicha monitoringini tashkil etish zarur.

Zamonaviy ta’lim tizimida nafaqat kadrlar tayyorlash bilan shug‘ullanish, balki ishlab chiqarishni rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish ham zarur hisoblanadi. Dunyo ta’lim xizmatlari tarkibida ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha yangiliklar yaratish va boshqa turli xizmatlar ko‘rsatishdan olinayotgan daromadlarning ulushi ortib bormoqda.

Mamlakatimizda ham ta’lim sifatini oshirishning mexanizmlaridan biri bo‘lgan fan, ta’lim va ishlab chiqarish hamkorligini ta’minlashda kadrlar buyurtmachilari taraflari hamda uning asosiy sub’ektlari hisoblangan professor-

o'qituvchi va talabani rag'batlantirish mexanizmlaridan foydalanishga yo'l qo'yilsa, bu sohadagi ishlar ijobiy natija beradi.

Oliy ta'lim tizimining kadrlar buyurtmachilari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini amalga oshiruvchi asosiy boshkaruv bo'g'ini - oliy ta'lim muassasalarining mutaxassislik kafedralari hisoblanadi. Mazkur hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida mutaxassislik kafedralari qoshida yetuk professor-o'qituvchilar, tegishli ishlab chiqarish korxonalari vakillari, doktorant, magistrant va iqtidorli talabalar tarkibidan iborat guruhlar shakllantirish lozim.

### **1.3. Ta'lim sifatini oshirishda ishlab chiqarish korxonalaridagi hamkor mutaxassislarini jalg etishning axamiyati. Ish beruvchi va OTMning integratsiyasi.**

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir.

Iqtidorli bolalar va o'quvchi yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati sobitqadamlik bilan olib borilmoqda. Iste'dodli o'smir va qizlarni izlab topish, ularga ko'maklashish, ularning qobiliyati va iste'dodini o'stirish bo'yicha maxsus fondlar tashkil etildi, qobiliyatli yoshlarni chet ellardagi yetakchi o'quv yurtlari va ilmiy markazlarda o'qitish va stajirovkadan o'tkazish yo'lga qo'yildi. Fan va ta'lim sohasida xalqaro aloqalar kengayib bormoqda.


Shunga qaramay, sodir etilgan o'zgartirishlar kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish talablariga muvofiq bo'lishi kerak. OTMni bitirayotgan kadrlar o'z mutaxassisliklari bo'yicha ishga joylash xali yetarli darajada muommolar bor. Bunga sabab xozirgi kun bitiruvchilar ko'p hollarda korxonalarning talablariga javob bermayapti. Natijada bitiruvchilar boshqa sohalarda ishlashga majbur bo'lmoqdalar va korxonalarda kadrlar muammosi paydo bo'lmoqda.

Hozirgi zamonda OTM bitiruvchilarini talab darajasida tayyorlash va ularni ishga joylashtirish alohida e'tibor talab qiladi. Mana shu parametrlardan kelib chiqqan holda davlat oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni belgilaydi. Hozirgi kunda OTM va ish beruvchilar orasidagi hamkorlikda ba'zi muammolar mavjud. OTM o'z bitiruvchilarini bilimdon deb hisoblasalarda, ular ish beruvchi talablariga aksariyat holatlarda yetarli darajada javob bermayaptilar. Ko'pgina

bitiruvchilar boshqa mutaxassislik bo'yicha ishlashga yoki qayta tayyorlov kurslarida o'qishlariga to'g'ri kelayapti. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, OTM va potensial ish beruvchi o'rtasidagi hamkorlik dolzARB masala bo'lib hisoblanadi. Shularni hisobga olgan holda respublikamizda bu borada ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Barcha OTMlarda ishlab chiqarish korxonalar bilan hamkorlik qilish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Bunda OTM va ishlab chiqaruvchi korxonalar birgalikda ish olib borsalar, kadrlar muammozi hal bo'ladi. Buning uchun quyidagicha yondash lozim bo'ladi. Buning uchun asosiy obekt hisoblangan talabani chuqur bilimli, yetuk mutaxassis bo'lib tarbiyalanishida, maqsadli mehnatga yo'naltirishda ishtirok etadigan subektlarni va mexanizmni aniqlab olish zarur.

Talabaning mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi va ishga joylashtirish masalasiga quyidagi subektlarni javobgar desak adolatdan bo'lar edi. Bular: talabalar, ota-onalar, OTM (mutaxassislik kafedralari), ishga joylashtirishning umumotmlararo tizimi va ish beruvchilar.

(1-rasm).



Malakali kadr bo'lib yetishishda talabaga juda katta ma'suliyat yuklanadi. Talaba o'qish davomida o'z ustida ishlashi, mustaqil ravishda muammolarni hal qilishga xarakat qilishi, berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi, mutaxassislik fanlarini chuqur o'zlashtirishi, belgilangan rahbar bilan uzlusiz ravishda ish olib borishi lozim bo'ladi.

Bu jarayonda ota-onaning roli ham o'ta muxim hisoblanadi. Ota-onsa avvalo farzandini biror bir mutaxassislik bo'yicha o'qishga berayotganda uning qiziqishlarini, bilimlarini hisobga olgan holda yondashishi lozim. Bu o'ta muhim hisoblanadi, sababi agar o'zi qiziqqan kasbga yo'naltirilgan talaba yetuk mutaxassis bo'lib yetishadi. Shu bilan birga ota-onsa o'qish davomida talabalarga

kerakli sharoitlarni yaratib berish, ya'ni, o'z vaqtida o'qishga borishini ta'minlash, dars tayyorlashga sharoitlar yaratish, OTM bilan doimiy aloqada bo'lib turishi kerak.


Yetuk kadr, malakali mutaxassis tayyorlashda OTM, ya'ni mutaxassislik kafedralar asosiy bo'g'in hisoblanadi. OTM qabul qilib olingan har bir talabaga bilim berishga ma'sul hisoblanadi. OTM talabalarga chuqur va sifatli dars berish uchun, avvalo malakali professor-o'qituvchilarni jalg qilishi, o'qish uchun kerak bo'ladigan barcha sharoitlarni yaratib berishi kerak. Bunga zamonaviy o'qish auditoriyalari, laboratoriya xonalari, amaliy mashg'ulot o'tadigan joylar, maxsus to'garaklarni tashkil etish, mustaqil ishslash uchun sharoitlar, zamonaviy kutubxonalar, internet xonalari va boshqalar kiradi. Bunda OTM talabalarni o'qishini doimiy nazorat qilishi, talabalar ota-onalari bilan doimiy aloqada bo'lishi lozim.

Talabalarni chuqur bilimga ega bo'lishida ish beruvchi, ya'ni ishlab chiqarish korxonalari ham alohida o'rinni egallaydi. Ishlab chiqaruvchi korxonalar avvaldan o'z ehtiyojlarini OTMga taqdim etib, o'ziga kerakli mutaxassislarni jalg qilishi, talabalarni o'qish davrida amaliyatga jalg qilib, ularda mutaxassislikka qiziqishlarini uyg'otish va shu bilan birga ularni rag'batlantirish orqali ularda stimulni shakllantirish lozim.

Yuqorida keltirilgan subektlar o'z vazifalarini o'z vaqtida bajarsa, malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj qondirilishi mumkin.

Shularni hisobga olgan holda shu xulosaga kelish mumkinki, xozirgi kunda malakali mutaxassis tayyorlashda talabalarni maqsadli yo'naltirish tizimi va mexanizmini ishlab chiqish lozim bo'ladi.

Talabani maqsadli yo'naltirish tizimi va mexanizmini quyidagicha keltirish mumkin.



Yuqorida keltirilgan tizimdan talabaning malakasiga ta'sir qiluvchi quyidagilarni ajratib olamiz:

1. Umumotmlararo strukturalar ta'siri.
2. Mutaxassislik kafedra ta'siri, jumladan,
  - past kurs talabalarini mutaxassislikka jalb qilish tizimi;
  - yetakchi talabalarni tayyorlash tizimi;
  - o'qituvchilar ta'siri;
  - maxsus ta'lim texnologiyalari asosida talabalikni ijtimoiy qo'llash tizimi;
3. Biznes va menejment vakillarining ta'siri.
4. Ota-onalarning ta'siri.
5. O'qituvchilarning ta'siri.
6. OTMning ichki reytingi.

Xozirgi rivojlanish vaqtida malakali talaba o'z ustida ishlashi, shaxsini o'stirishi lozim bo'ladi. Chunki xozirgi kunda ishga joylashishda talablar yuqori qo'yiladi. Malakali talaba deganda quyidagilar tushuniladi, ya'ni talaba o'qishni bitirgandan so'ng aniq mutaxassisligi bo'yicha kafolatlangan ish joyiga ega bo'lishi kerak va kelajakda o'z mutaxassisligi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib yetishishi kerak.

Malakali talaba shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar;

- yo'nalish bo'yicha chuqur fundamental tayyorgarlik;
- barcha ish va vaziyatlarda muvaffaqiyatga intilish;
- o'qish vaqtida tashkilotchilik faoliyatni rivojlantirish;
- tadbirkorlik faoliyatni rivojlantirish;
- ish yuzasidan davomli aloqalarni shakllantirish va rivojlantirish;
- o'z hayoti va karera yuzasidan rejalarini mavjudligi va nazoratini amalga oshirish;
- sog'liqni mustaxkamlash va o'z ish qobiliyatini oshirish;
- oilaviy xotirjamlikni ta'minlash;
- jamoatda o'z obro'sini oshirib borish;
- hayotiy omadga ishonish va bunday vaziyatlarni yaratishga intilish.

Shu bilan birga o'qish davomida talaba o'zini quyidagicha tutishi kerak:

- birinchi kursdanoq otmdagi o'qitish texnologiyalarini jadal o'rganish;
- shaxsiy tashkilotchilik- tizimda yashash va ishlashni bilish;
- rejalashtirish tizimlarini bilish va uni hayotda qo'llashni bilish;
- atrof-muxitdagilar bilan ijobiy muomalada bo'lish;
- shaxsiy faoliyatni doimiy nazorat qilib turish.

Bundan kelib chiqadiki xozirgi vaqtda yuqorida keltirilgan barcha subektlar

malakali talabalarni yetishtirishda muxim o‘rin egallaydi.

Bugungi kunda ish beruvchi va OTMni o‘zaro hamkorligini tashkil etishdan maqsad nima? Buning uchun ish beruvchi va OTMni o‘zaro hamkorligini tashkil qilishni quyidagi analizini ko‘rib chiqamiz.

Korxona qiziqishi	Talabani qiziqishi	Kafedra qiziqishi
<ul style="list-style-type: none"> <li>-malakali kadrlarni doimiy ishga olish</li> <li>-amaliy tayyorlash maqsadida talabalarni vaqtinchalik ishga olish</li> <li>-tadqiqot va ishlab chiqarishga talabalarni jalb qilish</li> <li>-ilmiy ishlab chiqarish va maslahatlarga o‘qituvchilarni jalb qilish</li> <li>-malakali mutaxassislar tayyorlashda ish beruvchi o‘rnini kuchaytirish</li> </ul>	Ish bilan ta’milanishi	<ul style="list-style-type: none"> <li>-bitiruvchilarni ishga joylashtirishda qatnashish</li> <li>-aniq kurs va diplom ishlarini korxona muammolari bilan bog‘lash</li> <li>-mutaxassislarni tayyorlashda ish beruvchi monitoringini olib borish</li> <li>-talabalarni amaliyot bazasi bilan ta’minalash</li> <li>-kafedra o‘qituvchilarini malaka oshirishini ta’minalash</li> <li>-tadqiqot va ishlab chiqarishga buyurtmalar olish</li> <li>-korxona ishchilarni qayta tayyorlashga qabul qilish</li> </ul>

## **2-MAVZU: OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA ISHLAB CHIQARISH KORXONALARI ALOQALARINI MUSTAHKAMLASH HAMDA KLASTER USULIDA FAOLIYAT YURITISHINI TASHKIL ETISH.**

**Reja:**

**2.1. Oliy ta'lismuassasalarida ta'lismifatini ta'minlash jarayoniga ish beruvchilarni jalg qilishning ahamiyati.**

**2.2. Oliy ta'lismuassasalarida raqobatbardoshlikni ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatini oshirish.**

**Tayanch iboralar:** ish bozori, raqobatbardoshlik darajasi, ta'lismizmatlari mablag'ları.

### **2.1. Oliy ta'lismuassasalarida ta'lismifatini ta'minlash jarayoniga ish beruvchilarni jalg qilishning ahamiyati.**

Oliy ta'lismuassasasi obro'si shakllanishi va uning samarali boshqarilishi, muassasaga ta'lismizmati bozorida o'zini ma'lum pozitsiyasini, o'rnini egallashga yordam beradi. Barqaror va albatta ijobjiy obro' ta'lismizmatini tanlovchilarga asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Raqobatchilar o'rtasida aynan shu ta'lismuassasini tanlashga undaydi. Har qanday abiturient qaysi oliy ta'lismuassasaga kirishni juda ko'p o'ylaydi, nafaqat o'zi, balki ota-onasi bilan bu masalani muxokama qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir ish beruvchining kadrlarga bo'lgan talabi o'sib bormoqda. Shunday ekan, oliy ta'lismuassasining bitirgandan so'ng ish bilan ta'minlanishi juda katta muammo bo'lib, mehnat bozorida chuqur bilim olgan, kasbiy malakalarga ega bo'lgan kadrgina ish beruvchini jalg qiladi.

Hozirgi kunda ta'litmizimi oldida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash dolzarb masalalardan biridir. Bu ishni amalga oshirish uchun OTMlar faoliyatini boshqarish tizimlarini takomillashtirish, bunda xozirgi zamon bozori va iste'molchilar talablarini e'tiborga olish lozim.

Ma'lumki oliy o'quv yurtlari iste'molchilar ish beruvchilar hisoblanib, ular bitiruvchilardan yuqori bilim va malakalarni talab etadilar. Xozirgi kun bitiruvchilari o'zlarida chuqur bilimlarni shakllantirgan bo'lishlari, ish davomida yuzaga keladigan vaziyatlarda bilim va tajribalarni ishga solgan holda muammolarni hal qila olishlari lozim. Bu xozirgi bozor iqtisodiyoti kechayotgan davr talabidir.

Shundan kelib chiqqan hoda aytish mumkinki, xozirgi kunda OTM va ish beruvchi o'zaro hamkorlikda ish olib borishlari lozim bo'ladi. Ish beruvchi bitiruvchilarga soni va sifati jihatdan extiyojlarni shakllantirishi, otmlar esa ushbu talablarni qondirish kerak.

Hozirgi kunda ish beruvchilarni bitiruvchilar sifat darajasidagi qoniqishlari o'r ganilganda shu narsa ma'lum bo'ldiki, otmlarda tayyorlanayotgan bitiruvchilar

mutaxassislik bo'yicha yetarli bilimlarga ega emas, amaliy bilimlar va ko'nikmalar doirasi tor darajada. Buni sababi otmarda berilayotgan nazariy bilimlar amaliyot bilan bog'liq holda olib borilmayotganligidir. Shundan kelib chiqqan holda kadrlar buyurtmachilariga xozirgi kunda malakali talabalarni o'qitishda quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- talabalarni amaliyotini real ish joylarida olib borish;
- OTMlarda o'qitishni ish bozori talabidan kelib chiqqan holda kengaytirish;
- mutaxassis tayyorlash sifatiga talablarni oshirish;
- ish beruvchi vakillari ishtirokida o'qish joylarida master-klasslar o'tkazish;
- ish beruvchilarni yakuniy davlat attestatsiyasida ishtirok etishi;
- o'qituvchilarni real ish joylarida malakalarini oshirish;
- ish beruvchi vakillarini otmda malakalarini oshirish;
- ish beruvchilarni ilmiy anjumanlarda qatnashishlarini yo'lga qo'yish;
- loyiha integratsiyasi;
- bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash;

Ish beruvchi va otmalarni hamkorligini oshirish eng avvalo talabalarni turli ko'rinishdagi amaliyotlarga olib borish orqali amalga oshirish mumkin. Aynan amaliyot talabalarda birlamchi tajribalarni oshirishga xizmat qiladi. Albatta o'quv, ishlab chiqarish amaliyotlari nazariy olingan bilimlar, ilmiy izlanishlar bilan birga olib borilsa ko'zlangan maqsadga erishiladi. Talaba olgan nazariy bilimlarini, laboratoriya bajarilgan ishlarni real ishlab chiqarish sharoitlarida amaldan o'tkazsa, va o'z navbatida ish joyidagi yuzaga kelayotgan muammolarga nazariy jihatdan yechimlar taklif qila olsagina yetuk mutaxassis bo'lib yetishishi mumkin. Bu ishni amalga oshirishda ish beruvchi va OTM o'zaro ikki tomonlarni qiziqishlarini o'zida aks ettirgan va malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilgan dasturlar tuzishlari kerak bo'ladi.

Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak bo'ladi:

- bilimlarni kuzatish, berilayotgan bilimlarni amaliyot bilan muvofiqligini aniqlash;
- maxsus bilimlar ketma-ketligini tuzish;
- pedagogik va ishlab chiqarishni maxsus bilimlarni shakllanishidagi optimal mutanosibligini muvofiqlashtirish;
- yangi o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini izlash;
- talabalarda ijodiy faoliytni va ilmiy faoliyatni oshirish.

Yuqorida keltirilgan ishlar birgalikda, ya'ni ish beruvchi va OTMlar bilan o'zaro hamkorlikda olib borilsa malakali kadrlar yetirshtirishda ko'zlangan maqsadlarga erishish mumkin.

## 2.2. OTMlarda raqobatbardoshligni ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatini oshirish.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar natijasida ta'lim jarayonida bevosita ishlab chiqarish korxonalari bilan OTMlar o'rtasida ta'lim sifatini oshirilishiga soxa va tarmoqlari uchun yetuk kadrlar raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilganligi bilan e'tiborga molik.

Ma'lumki, hozirgi kunda ta'limning sifati oliy ta'lim muassasasining raqobatbardoshlik darajasini belgilovchi muhim elementlardan biri sifatida qayd etilmoqda. Samaradorlik ko'rsatkichlarini baholashga yangicha, ya'ni innovatsion yondashish ta'lim muassasasi faoliyati sohasi natijalarini tezkor belgilashga imkon beradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda fan va ta'lim tobora kuchliroq tarzda jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchiga aylanmoqda, chunki fan va ta'lim har qanday davlatning iqtisodiy qudrati va rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy soxadagi cheksiz zaxirasi hisoblanadi. Globallashuv jarayonida dunyoda barcha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'limga nisbatan yangicha yondashuv, davlatni rivojlanishidagi asosiy rivojlantiruvchi komponentlardan biri sifatida qaralmoqda.

Hozirgi kunda boshqa sohalar qatori mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida ham katta ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari miqdori va sifatini yanada ko'tarish, tadbirkorlik faoliyatining turlarini kengaytirish, ya'ni ular diversifikatsiyasini tashkil qilish, budgetdan tashqari moliyalashtirishning yangi yo'nalishlarini amaliyotga keng joriy qilish, ular samaradorligini oshirish yo'llari katta keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlashda moliyaviy boshqaruvni tubdan isloh qilishda, ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, zamonaviy texnika-texnologiyaga, o'quv-uslubiy jihozlari bilan ta'minlash, davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish, yangi o'quv adabiyotlarini yaratish, eng muhimi, kadrlarning kasbiy malakasi va mahoratini yanada oshirish uchun ta'lim tizimini boshqarishda moliyalashtirishni manbalarini yanada takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda uzlusiz ta'lim tizimini shakllantirishga yo'naltirilgan birinchi qadam va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunni qabul qilinishi bilan bu talab qo'yildi.

Hozirgi kundagi asosiy vazifalardan biri bu oliy ta'lim muassalarida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishning muxim bo'lib hisoblanadi.

Bunga sabab, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ta'lim xizmatlari va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy omillarini o'r ganib, ularning ta'sirini kuchaytirish va asosiy e'tiborni qaratish lozim.

Oliy ta'limda tadbirkorlik faoliyati deyilganda oliy ta'lim muassasi tomonidan amaldagi qonunlar doirasida tashabbuskorlik bilan tavakkal qilib ish ko'radigan, o'zining mulkiy javobgarligi asosida jamiyat, davlat va aholi ehtiyojlariga mos bilimlarni oshirishga qaratilgan va ma'lum darajada foyda olishni ta'minlaydigan faoliyat tushuniladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida tadbirkorlik evaziga o'z daromadini oshirish muhim tadbirlardan biri hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, samaradorlikni oshirish evaziga erishiladi. Bu o'quv muassasalar uchun ham muhim masalalardan biridir.

Oliy o'quv yurtlarida tadbirkorlik faoliyatini faollashtirish bozor iqtisodiyoti va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida oliy ta'lim tizimida ta'lim xizmatlari bozori segmentlari deb ataluvchi davlat va xususiy oliy o'quv yurtlari o'rtasida raqobatning kuchayishiga sabab bo'ldi.

Oliy ta'lim muassasalarida tadbirkorlik faoliyati samaradorligi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Chunki, tadbirkorlik masalasi bozor munosabatlarining asosiy unsurlaridan bo'lishiga qaramasdan, u turli sohalarda turlichadir. Bu holat mazkur masalaga o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashishni talab qiladi.

Haqiqatda, oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati boshqa tarmoqlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega. U oddiy xizmatdan va tadbirkorlikdan mazmun-mohiyati jihatidan farq qiladi.

Tadbirkorlik hatti-harakati – bu boshqaruv ob'ekti, ya'ni o'qituvchi, kafedraning hatti-harakatida aks etadi, chunki ushbu holat oliy ta'lim muassasasi tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi. Professor-ukituvchi, xodimlarning tadbirkor sifatidagi hatti-harakatlari, tadbirkorlik faoliyatlar bilan bog'liqdir.

Oliy ta'lim muassasalarini moliyaviy jixatdan takomillashtirishda budjet va budjetdan tashqari mablag'lardan samarali foydalanish, mablag'larni tejash va maqsadli foydalanish, oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning xorijiy tajribalarini tatbiq etish, oliy ta'lim tizimni moliyalashtirishda tadbirkorlik mablag'larini keng jalb etish samaradorligini oshirish, oliy ta'lim tizimni moliyalashtirishda moliyaviy-iqtisodiy faoliyat barqarorligini ta'minlash, homiylar mablag'larini kengroq jalb qilish, vasiylar kengashi faoliyati samarasini oshirish katta axamiyatga ega.

Oliy ta'lim muassasalarida tadbirkorlik faoliyati deb ularda mustaqil tashabbusli, tavakkalchilik havfiga ega bo'lgan, konunlar doirasida daromad olish

bilan bog‘liq bo‘lgan, pul oqimlarining ma’lum bir aylanish jarayoniga ega bo‘lgan faoliyat tushuniladi. Shunday qilib, oliy o‘quv yurtlarining tadbirkorlik faoliyati fikrimizcha, budgetdan tashqari faoliyatning bir qismi hisoblanadi va u bilan taqqoslaganda biroz torroq tushuncha hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarida tadbirkorlik faoliyati samaradorligiga ko‘rsatkichlarning quyi va yuqori darajasini taqqoslash asosida baho berish mumkin. Bunda, oliy ta’lim muassasasining iqtisodiy boshqaruv mezoniga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Chunki, oliy ta’lim muassasalari iqtisodiyotining mohiyatini aks ettiruvchi eng muhim jarayonlar holati tahlil qilinishi zarur. Iqtisodiy o‘zgarish va ijtimoiy rivojlanishning joriy va o‘rta muddatli xususiyatlarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar quyidagilardir:

-oliy ta’limda mablag‘larning o‘sish ko‘rsatkichlari (budgetdan tashqari, mablag‘lar tushumining o‘sishi va tarkibi, investitsiyadan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari va hokazolar);

- oliy ta’lim salohiyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;

- oliy ta’limda professor ukituvchi xodimlarni rag‘batlantirishga yo‘naltirilayotgan resurslar mikdorini o‘sayotganligi;

- erishilgan natijalar avvalgilari bilan taqqoslaganda – samarali ishlayotgan korxona mehnat unumdarligining o‘sishi, ishlab chiqarish va xizmat xarajatlarining kamayishi;

- davlat o‘quv muassasalari faoliyati samaradorligi bilan xususiy o‘quv muassasalarining o‘xshash samarador ta’lim xizmatlari;

- rejallashtirilgan va erishilgan natijalar.

Bugungi mavjud oliy ta’lim muassasalari malumotlari va iktisodiy tahlil natijalariga asoslangan holda oliy ta’lim muassasalarida tadbirkorlik faoliyati samaradorligini aniqlashning quyidagi ko‘rsatkichlar tizimin takomillashtirish lozim:

- Oliy ta’lim muassasalari moliyaviy mablag‘larning tushum darajasi. Bu o‘z ichiga budget mablag‘larining tushum darajasi; budgetdan tashqari mablag‘larning tushum darajasi (ta’lim xizmatlaridan mablag‘lar tushum darajasi; sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdan olingan mablag‘larning tushum darajasi; o‘quv xo‘jaliklarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishdan hosil bo‘lgan mablag‘larning tushum darajasi; homiylik mablag‘lari tushumi darajasi va boshqalar)ni qamrab oladi.

- Oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanish darajasi. Bu ko‘rsatkichlar jumlasiga budget mablag‘laridan samarali foydalanish darajasi; budgetdan tashqari mablag‘lardan samarali foydalanish darajasi (ta’lim xizmatlari mablag‘laridan samarali foydalanish darajasi; sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdan tushgan mablag‘lardan samarali foydalanish darajasi; o‘quv

xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishdan tushgan tushgan mablag'lardan samarali foydalanish darjasи; homiylik mablag'laridan samarali foydalanish darjasи va boshqalar) kiritiladi.

- Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy investitsiyalardan foydalanish darjasи ko'rsatkichlariga xorijiy investitsiyalar hajmi, ularning tarkibiy tuzilishi, tasdiqlangan loyihalarning amalga oshirish darjasи, iqtisodiy samaradorligi kabilar kiradi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda mutaxassis kadrlar va pedagoglar, xodimlarning malakasini oshirish ko'rsatkichlari, shuningdek, professor-o'qituvchilar va boshqalarning ijtimoiy himoyalash ko'rsatkichlari ham oliy ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlarini va tadbirkorlik faoliyatini samaradorligini baholashga keng imkon yaratadi.

Tijorat va ishlab chiqarish faoliyatidan olingan mablag'lar buyurtmachi va oliy o'quv yurti o'zaro roziligi asosida oliy o'quv yurti tomonidan xarajatlar bandlari bo'yicha mustaqil taqsimlanadi. Oliy o'quv yurti tomonidan uskunalarini sotish yoki ijara berishdan tushgan mablag'lar, u tomonidan tashkil qilingan tijorat korxonalari foydasidan chegirmalar oliy o'quv yurti tomonidan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalaniladi. Korxonalar va idoralar oliy o'quv yurtiga mustaqil tasarruf etadigan uskunalar va materiallarni, binolar va inshootlarni, transport va texnika vositalarini, moliyaviy resurslarni homiylik tariqasida berishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarini o'quv uchun moddiy va mehnat resurslari cheklangan sharoitda oliy o'quv yurtining budgetdan tashqari faoliyatining iqtisodiy jihatdan samarali tashkillashtirilishi oliy o'quv yurti maqsadi va vazifalarini (ta'lim, fan, madaniyat) yaxshi natijalar bilan amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimiga qarashli oliy ta'lim muassasalarini iqtisodiyotining o'z (budgetdan tashqari) resurslaridan jadal va kengaytirilgan qayta ishlab chiqarilishiga imkon yaratuvchi o'quv yurtlari uchun shunday bir tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni ishlab chiqish, ya'ni o'zini o'zi yetarlicha ta'minlovchi va o'zini o'zi rivojlantiruvchi tizimini yaratish vazifasi turibdi.

Oliy o'quv yurtlari tadbirkorlik faoliyati o'z raqobat qobiliyatini oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etish muhim masala hisoblanadi. Oliy o'quv yurtlarining raqobatbardoshligi tushunchasini uning ma'lum davr oralig'idagi konkret bozor sharoitlarida boshqa raqobatchilardan bir qator ustivorli ko'rsatkichlar: moliyaviy-iqtisodiy marketing, moddiy-texnik, kadrlar va ijtimoiy-siyosiy ko'rsatkichlar bo'yicha ustunligi, shuningdek, oliy o'quv yurtlarining zararsiz faoliyat olib bora olish va tashqi muhit o'zgarishlariga tez moslasha olishini aks ettiruvchi kompleks tadbirlar sifatida taklif etildi va asoslab berildi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida

tadbirkorlik samaradorligini oshirish uning sifat darajasiga, ya’ni uning reytingiga bog‘liq bo‘lganligi bois, rivojlangan davlatlar tajribasi o‘rganish lozim. Bundan tashqari, ta’lim samaradorligini ko‘tarishda avvalambor, xalqaro davlatlar tajribasiga tayanish, mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlik, uning aholisini to‘lov qobiliyatini e’tiborga olish, ta’lim olishning maqbulligi, ta’lim xizmatlari sifatining yuqoriligi, o‘quv-uslubiy majmuuning iste’molchilar talabidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan bo‘lishi kabi qator xususiyatlarni inobatga olish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iktisodiy islohotlar doirasida OTMlarda tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- oliv ta’lim muassasalarida o‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta’minlash tizimini, ayniqsa budgetdan tashqari mablag‘lar (ta’lim xizmatlari va tadbirkorlik) hisobidan, bosqichma-bosqich takomillashtirib borish;
- fundamental loyihalarda, xalqaro grantlarda ishtirokini oshirib borish;
- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan uzlusiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini moddiy jihatdan qo‘llab-quvatlashda homiyarni jalb qilishni yanada kengaytirish;
- oliv ta’lim muassasalarida pulli ta’lim xizmati ko‘rsatish, tadbirkorlik, konsultatsiya, ekspert, noshirlik, ishlab chiqarish, ilmiy faoliyat va faoliyatning boshqa turlari hisobiga oliv ta’lim muassasalarining daromadlari kulamini yanada oshirishni ta’minlash.

- mamlakatimzda xozirgi kunda oliv ta’lim muassasalari ichki imkoniyatlardan kelib chiqikkan xolda mutaxassisliklari bo‘yicha o‘z tajriba uchastkalarida, labaratoriyalardan foydalangan holda qo‘sishimcha xizmat turlarini kengaytirish, masalan: qishloq xo‘jaligida dehqonchilik va chorvachilik, texnika, sanoat, yengil sanoat yunalishlari bo‘yicha ishlab chiqarish, til o‘rgatish amaliy xorijiy til o‘rgatish kurslari ko‘paytirish.

Yuqorida qayd etilgan xulosalar, kelajakda oliv ta’lim muassasalari tomonidan tadbirkorlik faoliyati samaradorligini yanada oshirishga, budgetdan tashqari tadbirkorlik asosada mablag‘lar ishlab topish imkoniyatini beradi.

## IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

## IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

### **1-MAVZU: KADRLAR BUYURTMACHILARI MUROJAATI ASOSIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI BAZASIDA MAQSADLI TA'LIM DASTURLARI, PROFESSIONAL MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH KURSLARI, TRENINGLAR TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI (4 soat).**

Amaliy mashg'ulotda oliy ta'lismida hamkorlikni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari va korxonalar o'rtasidagi sherikchilik munosabatlari, ta'lismi va ishlab chiqarishning integratsiyasi, oliy malakali kadrlar tayyorlashda raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi omillar kabi masalalar o'rganib chiqiladi.

#### **1.1.Oliy ta'lim tizimida hamkorlikni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari va korxonalar o'rtasidagi sherikchilik munosabatlari.**

O'zbekistonda bozor islohotlarining boshlanishidagi yangi sharoitlar oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash tuzilmasi, ularning bilim va ko'nikmalariga bo'lgan talabni o'zgartirdi. Endilikda yangi bilimlarni amalda qo'llay oladigan, muayyan kasb sohasidagi imkoniyatlar ko'lamini tushuna oladigan kadrlarga talab yuqori. Bular nafaqat joriy xo'jalik va ishlab chiqarish masalalarini malakali hal qiladigan, balki to'g'ri qaror qabul qila oladigan tahliliy qobiliyatga ega,yuqori darajali mutaxassislar bo'lishi lozim.

«Oliy malakali mutaxassislar tayyorlash raqobatbardoshligini oshirish»ga yo'naltirilgan dolzarb muammo ta'lismi jarayonining sifatiga bevosita ta'sir etuvchi omillarni va shuningdek, sifatni baholashga ko'maklashuvchi ko'rsatkichlarni yoritishga qaratish lozim. Yuksak darajada ma'naviy, madaniy va axloqiy sifatlarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash oliy ta'lismi tizimining vazifasi hisoblanadi. Ilmiy-pedagog xodimlar va ta'lim oluvchilar ilmiy-tadqiqotlari hamda ijodiy faoliyatları vositasida fan, texnika va texnologiyani rivojlantirish, olingan natijalardan ta'lismi jarayonida va tarmoqlarda foydalanish samarasiga erishish lozim. Hozirgi zamon mutaxassisi keng gumanitar bilimga ega bo'lishi lozim. Bu uning ma'naviyat va madaniyatini belgilaydi. Kadrlarni buyurtmachilari talabidan kelib chiqkan xolda kasbiy tayyorlash ta'lismi sifatining asosiy yakuniy sifatidir, bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- insonlar: professor-o'qituvchilar tarkibi, ta'lismi oluvchilar, o'quv-yordamchi faoliyat xodimlari, ma'muriy xodimlar va b.;

- texnologiyalar: pedagogik, tarbiyaviy, informatsiyaviy, boshqaruv, nazorat qiluvchi va b.;

- moddiy-texnikaviy ta'minot: binolar, jihozlar, laboratoriya va amaliyot

bazasi va b.;

- me'yoriy-huquqiy va o'quv-metodik ta'minot;
- ragbatlantirishlar va asoslar;
- tashqi ta'sirlar: bozor iqtisodiyoti talablari, korxonalar, jamiyat va davlat.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan ta'lim islohotlari davrida qabul qilingan Davlat ta'lim standartlari oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik jarayoni mazmunini tubdan o'zgartirdi. Ta'lim mazmunini shakllantirishdagi yangicha yondashuvlar oliy ta'lim muassasalarining huquqlari hamda majburiyatlarini demokratlashtirish va kengaytirishda, o'quv dasturlari mazmunini belgilashda, kasbiy ta'limning uning barcha bo'g'inlarida uzlusizlikni ta'minlanishda namoyon bo'lmokda. Shundan kelib chiqqan holda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash borasida har bir oliy ta'lim muassasasi oldida turgan vazifalardan biri bo'lib ta'lim jarayonida kadrlar buyurtmachialari bilan integrativ aloqadorliklarni o'rnatish va ulardan foydalanish, o'qitishda majmuaviy tizimli yondashuvni amalga oshirishda ular buyurtmasi asosida ish olib borish lozim.

Oliy ta’lim muassasaning malakali mutaxassislarni tayyorlashdagi asosiy vazifalari:

davlat ta’lim standartlariga muvofiq zamonaviy ta’lim-kasb dasturlari asosida sifatli o‘qituvni ta’minlash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash

yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlarni, jumladan xorijiy ilmiy markazlarda, tayyorlash

mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlaitirish istiqboli, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya, iqtisod va madaniyatning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlashning tashkil etilishi va usulini muntazam takomillashtirish

ta’limni individuallashtirish, masofadan o‘qitishning yangi pedagogik va informatsion texnologiyalari, vositalarini joriy etish

Mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik, Vatanga, oilaga va atrof muhitga muhabbat ruhida, milliy uyg‘onish mafkurasi hamda umuminsoniy qadriyatlarni chuqr his etish asosida oliy ta’limniig gumanitar yo‘nalishini, yoshlar tarbiyasini ta’minlash

pedagog xodimlar va ta’lim oluvchilar ilmiy-tadqiqotlari hamda ijodiy faoliyati vositasida fan, texnika va texnologiyani rivojlantirish, olingan natijalardan ta’lim jarayonida va tarmoqlarda foydalanish iqtisodiyoti

ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali uyg‘unlanuvchi usullarini amaliyotga tadbiq etish

ta’lim xizmati ko‘rsatish bozorida, raqobat muhitini yuzaga keltirish

rivojlangan mamlakatlar bilan oliy ta’lim sohasida o‘zaro foydali aloqalarni rivojlantirish

oliy ta’lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish va mustaqilligini kengaytirish

### **1-rasm. Oliy ta’lim tizimining malakali mutaxassislarni tayyorlashdagi asosiy vazifalari**

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlarda qo‘llashga tayyor bo‘lgan ilmiy texnologiyalar mavjud. Ilmiy ishlanmalarni tajriba-sanoat sinovidan o‘tkazish, ularni me’yoriy hujjatlar bilan rasmiylashtirish, biznes reja tuzish va boshqa chorralarni amalga oshirish ishlari olib borilmokda. Ushbu ishlanmalar Davlat budgetidan yoki ko‘proq iqtisodiyotning asosiy manfaatdor tarmoqlari va yetakchi korxonalarini tomonidan

moliyalashtirilishda albatta sherikchilik asosida olib borilishi lozim. Ularni tijoratlashtirish uchun esa innovatsiya g'oyalarini ilgari suradigan ixcham vositachi tashkilotlar, jumladan, moslashuvchan, olimlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy takliflar hisobidan tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha ko'plab vazifalarni hal etadigan ishlab chiqarish tuzilmalari ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan kichik vositachilik firmalari tashkil etish zarur. Ular buyurtmachilarimiz olimlarimiz tomonidan yaratilgan ishlamalar rivojlantirish hisobiga tarmoqlarni kadrlar buyurtmachilari bilan birgalikda rivojlantirishga doir ko'plab vazifalarni hal qiladi.

## **1.2. Ta'lim tizimi va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta'minlash zaruriyati hamda maqsadi.**

Fan, ta'lim va ishlab chiqarish sohalarining o'zaro integratsiyalashuvi jarayonlariga ta'sir etuvchi omillar va integratsiyalashuvning asosiy tendensiyalari bugungi kunda jamiyat ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishining hal qiluvchi kuchiga aylanib ulgurdi. Chunki, kundalik turmushimizda ilm-fan yutuqlari, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro jips aloqalari natijasida vujudga keladigan tovarxizmatharsiz mavjud bo'lgan hech qaysi bir soha yo'qdir. Insoniyat bugungi kunda yigirma birinchi asrga qadam qo'yib, o'tgan asrlar mobaynida urushlar va turli inqiloblar natijasida o'z tarixida davlatlar hamda xalqlar orasida yuzaga kelgan dushmanlik va nizolarni, kasalliklar va epidemiyalarni, buzg'unchilik va ayirmakashlik kabi illatlarni yengib o'tish uchun yangi yuz yillikdan bularning tubdan bartaraf etilishini kutib yashamoqda. Yangi yuz yillik xalqlar, mamlakatlar, qit'alarning integratsiyalashuvi, iqtisodiyotning va inson hayotining barcha sohalaridagi globallashuv davriga aylanishi kutilmoqda. Shuning uchun ham yigirma birinchi asr ko'p sohalarda bo'lgani kabi ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish sohalarida ham integratsiyalashuv va globallashuv asri bo'ladi degan g'oya asosiy o'rindan birini egallaydi. Shu o'rinda integratsiya, integratsion jarayonlar, unga ta'sir etuvchi omillarning tabiatini bilib, tushunib olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Integratsiya – bu eng avvalo, tabiiy jarayondir. Bu jarayon unda ishtirok etuvchilarning bir-birlariga yaqinlashuvi, qo'shib ketishi, qismlarining birlashtirilishini ko'zda tutishi bilan birga ularning o'ziga xosliklari saqlanib qolishini ham ifodalaydi. Biz fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya haqida gapirar ekanmiz, u holda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, integratsiyaning rivojlanishi unda ishtirok etuvchi har bir tarkibiy qismlarning o'zları ham ma'lum bir ma'noda rivojlanganlik darajasiga ega ekanligiga asoslanadi. Integratsiya haqidagi fikr-mulohazalarni uyg'unlashtirgan holda aytish mumkinki, integratsiya haqidagi ilk bora paydo bo'lgan dastlabki qarashlar integratsiya ta'riflanishi borasida o'zgarmas holicha qolgandir. Integratsiya o'z-o'zidan yo'q joyda paydo bo'lavermaydi, u integratsiyalashuvga ehtiyoj

sezayotgan ob'ektlar va sub'ektlardagi integratsiyalashuvga intilish jarayonlarining mahsulidir. Bu narsa ayniqsa, xalqaro integratsiyalashuv maydonida mintaqaviy integratsiya jarayonlari namunasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Integratsion jarayonlarning o'sishi yoki kuchayishi uning tabiiy ravishdagi ro'y beradigan jarayon ekanligidan darak beradi. Integratsion jarayonlarga qamrab olingan sub'ektlar yoki ob'ektlar o'zlarining asl xususiyatlarini saqlab qolgan holda o'z rivojlanishining sifat jihatdan yangi ko'rinishiga yoki bosqichiga o'tadilar.

Shuning uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichlarida integratsiyalashuvga talabning kuchayib borish – bu hayron qolarli hodisa emas. Integratsiya esa o'z navbatida o'zaro ochiqlikni talab qiladi. Faqat bunday ochiqlik iqtisodiy chegaralarning, milliy bozorlarning tovarlar, kapital, xizmatlar va shaxslarning o'zaro harakatlari ilm-fan, madaniyat, ma'rifat, san'at va til boyliklarining o'ziga xosligiga daxl qilmagan holda amalga oshadigan shart-sharoitlarni yaratishi lozimdir. Aynan mana shu shartlarga rioya qilingandagina integratsiya o'zining ijobiy taraqqiyparvarlik xususiyatlarini namoyon qila oladi. Shu bilan birga, integratsiya murakkab jarayon bo'lib, uning amalga oshirilishi uchun vaqt, ixtiyorilik, chidam va kelishuvchanlik talab qilinadi. Boshqacha aytganda, integratsiya jarayonlarini amalga oshirish uchun kishilarning ongini unga tayyorlash zarur bo'ladi. Bu shartlarning rioya qilinishi doimo asosiy masala bo'lib hisoblanadi, chunki, bu jarayonlarda integratsiyaning eng muhim xususiyati – uning xalq va davlat suverenitetiga daxl qilmasligi o'tkir muammoga aylanadi. Bu muammo ayniqsa, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsion aloqalarning amalga oshirilishida kuchli namoyon bo'ladi. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga tasir ko'rsatuvchi ko'plab omillar mavjuddir. Ular ichida eng avvalo, bunday integratsiyada hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladigan ishlab chiqarishni ajratib ko'rsatish lozim. Chunki, har qanday ilm-fan, ta'lim jarayonlarining integratsion aloqalari qanchalik kuchli va barqaror bo'lmasin, agarda ularning hosil qilgan yutuqlari ishlab chiqarish sohasiga safarbar etilib, o'zining yuzaga kelishi uchun sarflangan sarf-xarajatlar ishlab chiqarish tomonidan oqlanmas ekan, bunday integratsiya doimo chala bo'lib qolaveradi. Buning ustiga ishlab chiqarish hozirgi vaqtarda inson turmushining, xalqlar va mamlakatlar hayotining borish jarayoniga shu qadar singib ketganki, u endilikda milliy va siyosiy chegaralardan bemalol o'tib ketgandir. Boshqa tomonidan olib qaraganda, ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi uchun milliy va siyosiy chegaralar endilikda torlik qilib qolgan.

Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi yana bir omil bo'lib bozor hisoblanadi. Hozirgi zamon bozori, shu jumladan, oliy ta'lim xizmatlari bozori ham, juda tig'izlikka ega bo'lib bormoqda va ular o'zlarining

yakuniy xaridorlarini topish uchun yangidan-yangi manbalarni izlab topish payiga tushgandir. Shu sababli bizning odatiy tushunchamizdagi ishlab chiqarish tovarlari va xizmatlari bozori ta'lim xizmatlari bozori bilan to'qnash kelib, ular orasida integratsiyalashuv jarayonlariga zamin paydo bo'ldi. Bu yerda shu narsaga alohida diqqat qaratish lozim bo'ladiki, ishlab chiqarish sub'ektlari va ilm-fan, ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchilar bozorda o'zaro manfaatli asoslarda uning eng asosiy elementi – tovar va xizmatlarni yaratish va uni xaridorlarga yetkazib berish bo'yicha bir maqsad sari birlashishlari mumkindir. Bu esa ishlab chiqarishning ham, ilm-fan va ta'lim sub'ektlarining ham integratsiyalashuvdek har tomonlama hamkorlik aloqalarida o'zaro manfaatdorligini keltirib chiqaradi.

Ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsion aloqalar jarayonlariga ta'sir qiluvchi navbatdagi omil bo'lib iqtisodiyotdagi eng muhim muammolardan biri – resurslar taqchilligi sharoitida xom-ashyo, energiya, foydali qazilmalar, intellektual mehnat mahsuli kabilardan unumli foydalanish zarurati sanaladi. Tabiat shunday taqsimotni amalga oshirganki, bunda istalgan ishlab chiqaruvchi o'zi xohlagan har qanday resurslardan istaganicha foydalana olmaydi, balki bunda u resurslarning cheklanganligini inobatga olmasdan iloji yo'qdir. Shu sababli ham ishlab chiqaruvchilar aynan ilm-fan va ta'lim sohasi vakillari bilan integratsion hamkorlikni yo'lga qo'yish orqaligina o'zlarining bozordagi o'rinalarini saqlab qolish, ishlab chiqarish faoliyatining uzluksizligini ta'minlash muammoosini hal qilishlari zaruriyati va maqsadi muxim.

### **1.3. Oliy malakali kadrlar tayyorlashda raqobatbardoshlikka ta'sir etuvchi omillar.**

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimi oldida hozirgi kunlarda turgan eng muhim va dolzarb muammolardan biri bo'lib oliy malakali kadrlar tayyorlash raqobatbardoshligini ta'minlash sanaladi. Bu muammoni hal qilish uchun oliy malakali kadrlar tayyorlash raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlab olish, ularning ta'sir doirasini o'rganish, tasniflash va shundan so'ng lozim bo'lgan tashkiliy, ilmiy-tadqiqotchilik, iqtisodiy va boshqa shu kabi ishlarini amalga oshirish zarur bo'ladi. Chunki, mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari uchun yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar yetkazib berish biz uchun hozirgi kunlarda juda katta ijtimoiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda, davlat va jamiyat hayotida ijtimoiy rivojlanishning bir qator omillari kadrlash tayyorlash borasida oliy ta'lim tizimi oldiga ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy yondashuvlarini zaruriy darajada zamon talablariga moslashtirish bo'yicha yangi talablarni qo'ydi. Bu avvalo, murakkablashib borayotgan ijtimoiy turmushning hozirgi sharoitlarida faoliyatning turli sohalarida meg'an qilayotgan kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, shu asosda kadrlar qo'nimsizligidek mehnat bozorining noxush holatlariga chek

qo‘yish bilan bog‘liq. Bu jarayonga ta’sir ko‘rsatib, uni yaxshilashga esa kadrlar tayyorlash raqobatbardoshligini oshirish orqali erishish mumkindir.

Oliy ta’lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasidagi yangicha konseptual qoidalarga o‘tish va ularga tayangan holda ta’lim jarayonini tubdan yaxshilash bilan butun oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlashning zamonaviy shart-sharoitlarini yaratishga muvaffaq bo‘lish mumkin. Bunda hal qiluvchi ahamiyatga o‘quv jarayonini tashkil etishga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish, bunda talabalarining nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasining yuqori bo‘lishini ta’minlashni ko‘zda tutish lozim bo‘ladi.

Hozirgi davrda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda mehnat bozorida aynan yuqori malakali va keng kasbiy faoliyat doirasiga ega bo‘lgan mutaxassislargina katta talabga ega sanaladilar. Bunday yuqori malakali kadrlarni tayyorlash samaradorligi esa oliy ta’lim muassasasida talabalarga nafaqat bilim berish uchun o‘quv mashg‘ulotlari hajmini oshirib qo‘ya qolish bilan, balki ularning nazariy va amaliy tayyorgarliklari darajasi yuqori bo‘lishini ta’minlaydigan omillarga ham e’tibor berish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta’lim muassasalarida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash borasida amalga oshirilgan ishlarda mazkur masalaning mohiyati ko‘proq axborot-ehtimoliylik nuqtai-nazaridan yoritilgan bo‘lib, empirik tajribalarga asoslangan konseptual-konstruktiv ishlanmalar hajmi unchalik ko‘p emasdir. Shuning uchun ham kadrlar tayyorlash raqobatbardoshligini oshirish borasida tashkiliy, ilmiy-pedagogik ishlarni amalga oshirishda mazkur masalaga keng nuqtai-nazardan yondashish zarur bo‘ladi.

Mana shunga bog‘liq holda yuqori professional xususiyatga ega bo‘lgan kadrlarni shakllantirish uchun oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etishda ma’lum bir pedagogik ta’sirlarni ko‘rsatish talab qilinib, ular ma’lum bir kasbiy faoliyat sohasidagi mutaxassislik talablari bilan shartlangan ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlar hamda qobiliyatlarni majmuaviy va to‘liq qondirilishini ta’minlaydigan vositalar hamda metodlarga tayanadigan nazariy va amaliy tayyorgarlik doirasida amalga oshirilishi mumkin.

Oliy ta’lim muassasasida tarbiyalab yetishtirilayotgan bo‘lg‘usi mutaxassisning nazariy, amaliy va ilmiy fikrlay olishga qobiligi – bu istalgan kasbiy faoliyat sohasidagi har bir kadrning yuqori professional darajada mutaxassis ekanligini bildiruvchi mezonlardan biridir. Kasbiy faoliyat sohasida kadrning faoliyati uning shaxsiy, ruhiy va jismoniy xususiyatlariga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Tabiiyki, bunda bo‘lg‘usi mutaxassisni tayyorlash jarayonida unga kasbiy ta’sir ko‘rsatish ob’ekti fikrlash tarzida to‘liq bo‘lib, kasbiy faoliyatning uzrli jihatlari va ko‘rinishlari yaxlitligi holatida namoyon bo‘lishi kerak. Aynan mana shu yo‘sinda ta’lim-tarbiya olgan bo‘lajak mutaxassisgina o‘z kasbiy faoliyatida to‘g‘ri, ya’ni

konkret amaliy vaziyatga mos bo'lgan professional qarorni qabul qila olish darajasiga yetishadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan ta'lim islohotlari davrida qabul qilingan Davlat ta'lim standartlari oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik jarayoni mazmunini tubdan o'zgartirdi. Ta'lim mazmunini shakllantirishdagi yangicha yondashuvlar oliy ta'lim muassasalarining huquqlari hamda majburiyatlarini demokratlashtirish va kengaytirishda, o'quv dasturlari mazmunini belgilashda, kasbiy ta'limning barcha bo'g'inlarida uzlusizlikni ta'minlanishi kabilarda namoyon bo'ldi. Shundan kelib chiqqan holda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash borasida har bir oliy ta'lim muassasasi oldida turgan vazifalardan biri bo'lib ta'lim jarayonida integrativ fanlararo aloqadorliklarni o'rnatish va ulardan foydalanish, o'qitishda majmuaviy tizimli yondashuvni amalga oshirish sanaladi.

Oliy ta'lim amaliyotidan ma'lumki, har bir oliy ta'lim muassasasidagi o'quv jarayoni talabalarda ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy fikrlay olish qobiliyatini ta'minlashi zarur. Bundan kelib chiqib esa aytish mumkinki, bunday fikrlay olish qibiliyatini shakllantirish uchun o'qitish jarayonining nazariy-amaliy jihatdan darjasasi yuqori bo'lishini ta'minlash kerak bo'лади.

Hozirgi kunlarda yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash turli-tuman pedagogik, tashkiliy, iqtisodiy va boshqa shu kabi jarayonlardan iborat ijtimoiy hodisani namoyon qiladi. Bu jarayonlarni boshqarish uchun esa oliy ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini boshqarishning o'zini intensifikatsiyalash zarur bo'lib, bu o'z navbatida ta'lim muassasasida mehant qiluvchilardan katta pedagogik, tashkiliy va kasbiy mahoratlarni ishga solishni talab qiladi.

Kasbiy faoliyatni amalga oshirishda inson omilini faollashtirishning markaziy vazifalaridan biri bo'lib o'z ichiga umumiyo rivojlanish bilan bir qatorda yuqori kasbiy tayyorgarlikni va malakani doimiy oshirib borishni oluvchi kishi shaxsini rivojlantirish masalasi sanaladi. Kasbiy atyyorgarlikning bu an'anaviy muammosi hozirgi kunda ko'plab ilmiy nuqtai-nazarlar orqali o'rganilib, bu kadrlar tayyorlash borasidagi pedagogik nazariyani majmuaviy yondashuv bilan boyitib bormoqda. Butun oliy ta'lim tizimi uni yaxlit olib qaraganda juda konservativ xususiyatga egadir va shuning uchun ham ta'lim standartlarining tuzilmasida kadrlar tayyorlash raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha o'zgarishlar asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ko'zda tutish lozim sanaladi. Bularning barchasi hozirgi zamon oliy ta'lim tizimining holatini va unda kadrlar tayyorlash raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar mexanizmlarini ishlab chiqishni, keyinchalik ularni oliy ta'lim muassasalari faoliyatida joriy qilishni chuqur anglashni talab qiladi.

Hozirgi kunlardagi mamlakatimiz ta'lim tizimidagi vaziyat oliy ta'limga bo'lgan qiziqishning ortishi, jamiyatda oliy ta'limning nufuzi oshib borishi bilan tavsiflanadi. Bunga nodavlat ta'lim muassasalarining paydo bo'lishi, an'anaviy bo'lib qolgan kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va ularda tahsil oluvchilar sonining ko'payib borishi, oliy o'quv yurtlariga kirish uchun tayyorlov kurslarida o'qiydiganlar sonining ko'payganligi, bunday tayyorlov kurslarida tayyogarlikdan o'tib, oliy o'quv yurti talabasiga aylanganlar ulushining orti borayotganligi, mamlakat oliy o'quv yurtlarida o'rtacha tanlov ballining ko'tarilib borishi kabi ko'rsatkichlar guvohlik beradi. Shubhasizki, mana shu jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lib ta'limning diversifikatsiya-lashuvi jarayoni sanaladi. Ta'limning diversifikatsiyalashuvi, xususan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha ixtisosliklar soni va shunga mos holda oliy o'quv yurtlarida kafedralar sonining doimiy ortib borishida namoyon bo'lmoqda.

Shaxsning ko'p qirrali tabiatini va uning shakllanishiga faoliyatli yondashuv pedagogik amaliyotda yuqori malakali kadrlash tayyorlash borasida eng avvalo komil, yetuk shaxs bo'lib yetishish yo'lida individning ijtimoiy va biologik sohalarida uning ijobiy olg'a rivojlanishi yaxlitligini ta'minlovchi jamlama tuzilmasini ifodalovchi faoliyatning turli-tuman ko'rinishlaridan foydalanishni shart qilib qo'yadi. Kasbiy professional shaxsni shakllantirish jarayoni kasbiy ta'lim talab qiladigan ehtiyojlar va qobiliyatlarni to'la qondirish metodlariga asoslanadigan doiradagi pedagogik ta'sirlar ko'rsatilishini talab qiladi. Mana shu yerda yuqori malakali kadrlar tayyorlashdagi shaxsning kasbiy professional kadr bo'lib yetishishiga ijtimoiy talab bilan uni amalga oshirish murakkabligi orasidagi asosiy qarama-qarshilik bir qator o'zaro mos kelmaydigan holatlarni shartlaydi:

- kasbiy faoliyatning zamonaviy turlari talablari va shaxsning bu talablarni bajara olishga qoniqarsiz holda tayyorlanganligi holati;

- professional shaxsni tarbiyalashda keng miqyosli pedagogik ta'sirlarni ko'rsatish zarurligi va bu jarayonda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sohasida ta'lim konsepsiyasining nazariy-metodologik asoslarining butun salohiyatidan foydalanmaslik;

- ko'p yillik o'quv va kasbiy faoliyatda kasbiy tayyorgarlikning yuqori darajasini ta'minlab turish zarurati va talabli-motivatsion va qadriyatl yo'naltirilgan munosabatlarini shakllantirishga kasbiy ta'sirlarning yo'naltirilganligi mavjud emasligi.

Mana shu qarama-qarshiliklarning hal qilinishi oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlash raqobatbardoshligini oshirishga, shu yo'l bilan oliy ta'lim muassasasining ta'lim xizmatlari bozorida mustahkam o'rin egallashi va oliy o'quv yurtining o'z ijtimoiy funksiyasini to'la amalga oshirishiga zamin

hozirlash mumkin bo'ladi va bunda kadrlar buyurtmachilari bilan tuzilgan shartnomalar sifatli amalga oshiriladi.

## 1-AMALIY ISHNI BAJARISH

**Materiallar:** 1 va 2 -tarqatma materiallar

**Ish tartibi:** individual, juftlikda, kichik guruhlarda, yalpi muhokama.

**Ishdan maqsad:**

Sessiyada ishtirokchilardan ta'lim sifatini oshirishda innovatsion menejment, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, xalqaro standartlarni oliv ta'lim tizimida joriy qilinishi va ularning ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar haqida muhokama qilish.

**So'ngra ularga 1 va 2 tarqatma materiallar topshiriladi.** Tinglovchilar 1-tarqatma materialdagi Xalqaro sifat standarti ISO 9001, Sifat menejmenti tizimi haqidagi materiallari va 2-tarqatma materialda Buyuk Britaniya oliv ta'lim tizimi sifatini nazorat kilish Agentligining Qoidalar majmuasi bilan tanishgan xolda fikr va muloxazalar keltiriladi. Bu vazifa uchun trener 12 daqiqa ajratadi.

So'ngra tinglovchilar guruh-guruh bo'lib 1 tarqatma materialdagi savollarga o'z javoblarini muxokama qilgan xolda to'g'ri javoblar bilan solishtirishtiriladi. Natijada, trener bilan birgalikda savol-javoblar o'tkazadilar.(10 daqiqa)

**Tinglovchilarga beriladigan tarqatma materiallar**

**1-chi tarkatma material (1 guruhi uchun): Xalqaro sifat standartlari zamонавий бошиқарув услубиётини қўллаш (ISO-9001 сериядаги халқаро сифат стандартлари). Сифат менежменти тизими прициплари (CMT).**

1.3. Халқаро сифат стандартлари  
 замонавий бошиқарув услубиётини қўллаш  
 (ISO-9001 сериядаги халқаро сифат  
 стандартлари). Сифат менежменти  
 тизими прициплари (CMT).



**T.Shodiev – Toshkent xalqaro Vestminster universiteti kafedra mudiri,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor**

**Rasmni izoxlang:**



1-chi таркатма материал (2 гурӯҳ учун): Xalqaro sifat standartlari замонавий бoshqaruв uslubiyotini qo'llash.

1.3. Халқаро сифат стандартлари замонавий бошқарув услубиётини құллаша  
(ISO-9001 сериядаги халқаро сифат стандартлари). Сифат менежменти тизими принциплари (CMT).



Халқаро стандартизация нима ва у қандай фаолияттарни бажаради?

- 
- 
- 

Халқаро стандартлаштиришнинг тамойиллари қандай?


- 
- 
- 

Стандартлаштиришнинг қандай турлари мавжуд?

- 
- 
- 
- 

Rasmni izoxlang:

## Таълим тизимида сифат менежменти



1-chi tarkatma material (3 guruh uchun): Xalqaro sifat standartlari zamonaviy boshqaruv uslubiyotini qo'llash.

### *1.3. Халқаро сиғат стандартлари*

*замонавий бошқарув услубиётини қўллаши*

*(ISO-9001 сериядаги халқаро сиफат стандартлари). Сифат менежменти*

*тизими принциплари (СМТ).*



## **Халқаро стандартизация нима ва у қандай фаолиятларни бажаради?**

- \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

**ISO ўзи нима? (International Standard Organization).**

- \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

## **ISO қандай фаолият бажаради?**

- - 
  - 
  -

### Rasmni izoxlang: “Sifat menejmenti binosi”



### Tinglovchilarga beriladigan tarqatma materiallar:

#### 1-chi tarqatma material.

##### 1-chi gurux uchun:

##### **Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimi sifatini nazorat qilish Agentligining Qoidalar majmuasi**

Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimi sifatini nazorat qilish Agentligining Qoidalar majmuasi (Sifat Qoidalari majmuasi) oliy ta'lim tizimini sifatini nazorat qilish Agentligida ruyxatdan o'tgan oliy ta'lim muassasalariga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi.

Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimini sifatini nazorat qilish bo'yicha Agentlikning Qoidalar Majmuasining maqsadi quyidagilardir.

- ✓ Oliy ta'lim tizimiga qo'yiladigan yuqori akademik standartlarga mos kelish;
- ✓ Oliy ta'lim muassasasi talabalarga berayotgan ta'lim sifatini ta'minlash;
- ✓ Oliy ta'lim tizimini uzluksiz va tizimli ravishda rivojlanishini qullab quvvatlash;
- ✓ Oliy ta'lim muassasalari xaqida to'liq ma'lumotning mavjudligini ta'minlash.

Sifat Qoidalari majmuasi Buyuk Britaniyaning 4 ma'muriy-siyosiy qismida joylashgan oliy ta'lim muassasalariga tarqatiladi, bundan tashqari bu sifat Qoidalari majmuasi Buyuk Britaniya xalqaro ta'lim muassasalari uchun ham majburiy xisoblanadi. Bu Qoidalalar barcha Britaniyalik talabalar manfaatini, ular qanday ta'lim turida o'qishidan qat'i nazar (kunduzgi, sirtki, bakalavriat, magistratura) himoya qiladi.

Bu Agentlik muntazam ravishda ta'lim muassasalarini sifatini nazorat

qilib, ularning qo'yilgan talab va sifat mezonlariga mos kelish -kelmasligini tekshiradi. Mazkur xujjat sifat bo'yicha Qoidalari Majmuasining texnik axborotlarini o'z ichiga olgan. Oliy ta'lim tizimi sifat Agentligi keng ommaga mo'ljallangan ta'lim tizimi sifati bo'yicha qo'llanma xam nashr etgan.

### **1-chi gurux uchun savollar:**

Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimini nazorat etuvchi AGENTlikning QOIDAlar majmuasi o'zi nima?

Qonunchilikka munosabat

Sifat Qoidalari majmuasi o'z ichiga nimalarni oladi?

- Talablar

- Barqaror amaliyot ko'rsatkichlari

- Umumqabul qilingan afzalliklar

- Boblar

- Mavzular

Buyuk Britaniya uchun oliy ta'lim tizimi sifatini nazorat qilish Agentligining QOIDALAR MAJMUASI nima uchun zarur?

**Sifat Qoidalari majmuasi qanday shakllangan?**

**Sifat Qoidalari majmuasi(SKM) kimga mo'ljallangan?**

Oliy ta'lim muassasalariga

Ta'lim standartlari va sifatiga javob beruvchi mutaxassislariga

Oliy ta'limning keng mutaxassislariga

Talabalarga

Agentlikning nazorat olib boruvchi inspektorlariga.

**Amaliyotda SKM qanday amalga oshiriladi?**

**Oliy ta'limni sifatini nazorat Agentligini roli qanday?**

**Oliy ta'limda xomiy tashqilotlarning roli qanday?**

Tenglik va farqlar

Akademik standartlar, sifat, rivojlanish va axborot

SKMda qo'llanadigan iboralar

**Yana qanday resurslar foydali bo'lishi mumkin?**

Qo'shimchalar-SKMni qo'llanilishi:

- ✓ Buyuk Britaniyaning 4 ma'muriy qismida qo'llash

- ✓ SKMni bazaviy ta'limga nisbatan qo'llash

- ✓ SKMni Buyuk Britaniyadan tashqarida qo'llash.

Muntazam ravishda Buyuk Britaniyada xar yilli oliy ta'lim tizimi SKMsni tekshiriladi va o'zgartirishlar kiritiladi. Oliy ta'lim tizimining sifat nazorati Agentligining SKMsiga barcha oliy ta'lim muassasalari rioya qilishlari shart. Bu xujjat milliy darajada tasdiqlangan bo'lib, oliy ta'lim dasturlarini tavsiya qiluvchi

va ishlab chiquvchi barcha tashqilotlar uchun dasturilamal bo‘lib xisoblanadi. Bu oliv ta’lim muassasalari faoliyat natijasi bo‘lib, bakalavr, magistr malakasini yoki ilmiy unvonlarni berish xisoblanadi. Shuning uchun xam Oliy ta’lim tizimini sifatini nazorat Agentligining SKMSi talablariga ta’lim muassasalari rioya qilishlari majburiydir.

Angliya, Shimoliy Irlandiya, Shotlandiya va Uels ma’muriy territoriyalardagi oliy ta’lim muassasalari va Xalqaro oliy ta’lim muassasalar yuqoridagi xujjatlar asosida faoliyat olib boradilar. Shu bilan birga ba’zi tarmoq oliy ta’lim muassasalari xam shu xujjatlar asosida ish olib boradilar va malaka yoki ilmiy unvonlarni berishlari mumkin.

## **1.2. Akademik standartlar, sifat, takomillashtirish, axborot**

Bu 4 ko‘rsatkich Agentlikning barcha tashqi tekshiruvlarining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib xisoblanadi. Ko‘p jixatdan bular o‘zaro bog‘liq bo‘lsada, ulardagi farqni SKM tarkibida keltirilganlardan aniqlash kerak.

Minimal(dastlabki) akademik standartlar - malakviy daraja yoki ilmiy unvon olish uchun zarur bo‘lgan bilimlar va yutuqlarga bo‘lgan talablardir(doktorlik minimumday). Xar qanday malakaviy daraja uchun aloxida akademik standartlar ishlab chiqilgan. Bunday standartlar Buyuk Britaniyaning barcha ma’muriy xududlarida birday qo’llanadi.

**AKADEMIK STANDARTLAR**—ilmiy unvonlar beruvchi tashqilotlarning malkaka va daraja olish uchun tasdiqlangan standartlaridir. Bunday standartlar minimal standartlardan yuqori darajada o‘rnataladi(ishlab chiqiladi).

Minimal yoki boshlang‘ich standartlar ilmiy daraja, unvon beruvchi tashqilotlarda oliy ta’limdagi malaka darajasiga to‘g‘ri keluvchi, ya’ni uning mantiqan yuqori darajadagi davomi bo‘lib qo’llanadi. Minimal akademik standartlar oliy ta’limdagi talabalarga o‘rnatalgan malakaviy standartlardan farq qiladi. Malkaviy standartlar oliy ta’limda ma’lum yo‘nalish bo‘yicha bilimlar va malakaviy ko‘nikmalarga ega bo‘lishni nazarda tutadi. Ilmiy daraja beruvchi va tasdiqlovchi tashqilotlar minimal akademik standartlar asosida ish yuritadi va javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi.

Oliy ta’limning dasturiy o‘qitish jarayoni natijasida milliy malakaviy klassifikatsiya ko‘rsatkichlariga mos keluvchi yuqori raqobatli kadrlar tayyorланади. Talabalar yutuqlari ular tanlagan Dastur mazmun va mohiyatini qanday darajada o‘zlashtirganliklari o‘tish ballari asosida

**baholanadi. Bu jixatlar, qo'yilgan kuchli talablar Buyuk Britaniya oliv ta'limining kuchli tomoni xisoblanadi.**

Barcha oliv ta'lim muassasalar va ilmiy daraja beruvchi ilmiy tadkikot institutlar SKMdan o'quv Dasturlari va Standartlar ishlab chiqishda dasturilamal sifatida foydalanadilar. Fanlar bo'yicha Dasturlar ishlab chiqishda tashqi mutaxassislarni jalg qilish, ularni qabul qilishga jiddiy va ma'suliyat bilan yondoshish talab etiladi. Minimal akademik standartlarni qiyoslashda va ular monitoringini olib borishda oliv ta'lim stanlart va dasturlari muxim axamiyatga ega. Imtixon, test jarayonlariga tashqaridan mutaxassis va professor o'qituvchilarni jalg etish, baxolash jarayonini oydinligini ta'minalashga doimo katta e'tibor qaratiladi va amalda unga erishiladi. Bu talabalarni o'z yutuqlarini ob'ektiv baxolanishiga ishonchini oshiradi va ularni ma'sulyat bilan bilim olishga qiziqtiradi.

**AKADEMIK SIFAT** – tegishli malakani olish uchun talabalar qay darajada yaxshi sifatli bilim olish imkoniyatiga ega ekanligini anglatadi. Samarali ta'lim, uni baxolash jarayoni, o'qitish resuslarining mavjudligi va ulardan talabalar qay darajada foydalana olishlari mumkinligi nazarda tutiladi. Oliy ta'lim muassasasi yuqori sifatli ta'limni berishni kafolatlash bilan birga, bir darajada berilgan ta'limni xamma talaba tomonidan bir darajada qabul qilinishiga kafolat bera olmaydi. Shunday bo'lsada, o'qitishning samarali tarkibini, strategiyasini va boshqarish jarayonini qullab, yuqori natijalarga erishishga xar bir ta'lim muassasasi harakat qiladi.

**TAKOMILLASHTIRISH**—jarayonida oliygox muntazam ravishda ta'lim sifatini oshirib, bilimni talabalarga uzatish yo'llari izlanadi. Takomillashtirish jarayoni ta'limning turli bosqichlarida, boshqaruvning pastdan to yuqori pog'onasi gacha, o'qitish jarayonida, nazorat va baxolash mexanizmida ma'suliyat va javobgarlik xissinii anglagan holda amalgalashirishi kerak. Bunday vazifalar ta'lim sifatiga bevosita ta'sir etib, oliv ta'limning strategik yo'nalishlarini belgilab beradi. Sifatni oshirishning turli usullari SKMning barcha qismlarida ma'lum yo'nalishlariga nisbatan berilgan.

Oliy ta'limnmng muximligi haqida aholi o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borish, oliv ta'lim to'g'risida to'liq ma'lumotlarni berish, tegishli auditoriyaga mos suhbat uyushtirish, turli ijtimoiy guruxlar orasida ish olib borish juda muxim.

**Barcha oliv ta'lim muassasalari ma'lum dastur asosida tegishli malaka**

**berishda SKMda keltirilgan talablarga- qat'iy rioya qilishlari shart.**

**OLIY TA'LIM MUASSASASI** - termini OTSNK Agentligi tomonidan klassifikatsiyalangan va ma'lum dasturlar asosida tegishli malaka yoki ilmiy daraja berish uchun vakolatlangan muassasa tushuniladi.

Oliy ta'lism **KLASSIFIKATSIYA TARKIBINING** 4-8 darajasiga mos keluvchi dastur xisoblanib, Angliya, Uels va Shimoliy Irlandiyada va 7-12 daraja Shotlandiya oliygoxlariga to'g'ri keladi.

Oliy ta'lism muassasalari o'z vakolat doiralarida va majburiyatlarasi asosida faoliyat ko'rsatishlari lozim. Oliy ta'lism malakasi va ilmiy daraja berishga vakolatlangan muassasalar ro'yxati tegishli saytlarda berilgan ([www.gov.uk/recognised-uk-degrees/](http://www.gov.uk/recognised-uk-degrees/)).

-Oliy ta'lism muassasalari tegishli tarmoqlar, vazirliklar ishtirokida xam ilmiy unvonlar berish vakolatiga xam egalar. Meditsina, yurisprudensiya kabi sohalarda bu qo'llanadi.

Malakalar bo'yicha Shotlandiya Departamenti tomonidan diplom va Milliy Oliy Ta'lism Attestati beriladi.

Ta'lism muassasasi kafedra, fakultet, o'quv yurti yoki muassasadan iborat. Kollej va maktablar ham kafedra tashqil qilishi mumkin. SKM da Dastur iborasi tasdiqlangan, ma'lum kurs, yo'nalishga mo'ljallangan ta'lism mazmunini bildiradi. Agar dastur bir-biriga bo'g'liq bo'lmagan formal tarkiblashtirilgan birliklardan iborat bo'lsa ular **modul** deb ataladi. O'quv predmeti ma'lum soxadagi bilimlar majmuasini anglatadi. Malaka – akademik standartlarga mos ravishda talabaning baxolashlar assosida zaruriy natijalarga erishganligini va standartlarga moslik darajasini anglatuvchi iboradir.

«Malum ravishda himoyalangan talabalar guruxi» Tenglilik Akti (2010)ga Muvofik Alovida Standartlar va dasturlar asosida baxolanadi.

Sifatni taminlash o'zi nima? Buyuk Britaniya oliy ta'lism muassasalari talabalarining manfatlarini himoya qilgan xolda yuqori akademik standartlar asosida bilim berish jarayoni va uning sifatini kafolatlashdir.

## **2-chi gurux uchun:**

### **Buyuk Britaniya oliy ta'lism tizimining umumiyl qadriyatları.**

SKM mustaqil va o'z-o'zini boshqaruvchi ta'lism muassasalari uchun zaruriy boshlang'ich xujjat bo'lib ta'lism Dasturlari va Standartlari u yerda belgilangan me'zon va ko'rsatkichlarga mos ravishda ishlab chiqiladi. Natijada barcha oliy ta'lism muassasalarida ta'lism sifatining yuqori bo'lishiga erishiladi. SKMning talablari ilmiy tekshirish institutlari va boshqa ta'lismni uzatish, mulkni boshqarish bilan bo'g'liq faoliyat turlariga tegishli emas.

SKMning umumqabul qilingan qadriyatlari, ta'lim muassasalari asoslanadigan asosiy xolatlarni izoxlaydi.

- Xar bir talabaga aloxida e'tibor va xaqqoniylik, hurmat bilan munosabat qilish;
- Xar bir talaba o'z qobiliyatidan kelib chiqqan holda o'zining ta'lim jarayoniga xissasini qo'sha olish imkoniyatini yaratish;
- Ta'lim dasturlariga tegishli barcha axborotlar bilan talabani tanishish imkoniyatini berish;
- Ta'lim jarayoniga tegishli o'quv dasturlari va barcha jarayonlar tushunarli va oydin bo'lishi lozim.
- Ta'lim jarayonining akademik standartlari va ta'lim sifatining strategik nazorati eng yuqori darajadagi raxbariyat tomonidan nazorat qilinadi;
- Xamma o'rnatilgan tartiblar va jarayonlar muntazam ravishda va chuqr o'r ganilishi, tekshirilishi va nazorat etilishi zarur;
- Ta'lim sifati va akademik standartlarni qullab quvvatlash uchun ma'lum darajada tashqi resurslarni jalg etish kerak;
- Ta'lim muassasasining barcha xodimlarini sifatli faoliyat olib borishini rag'batlantirish.

SKMsni 4 qismdan va xar bir qism boblardan iboratdir.

### **Boblar:**

#### **A-qism. Akademik standartlarni tasdiqlash va qullab quvvatlash;**

A1-Yevropa va Buyuk Britaniyada standartlarni (o'rnatish) tasdiqlash yo'nalishlari;

A2—Ilmiy unvon beruvchi muassasalar akademik standartlari yo'nalishlari;

A3—Ilmiy unvonlarga qo'yiladigan standartlar talablarini tasdiqlash.

#### **B-qism. Akademik sifatni oshirish va kafolatlash.**

B1-Dasturni ishlab chiqish, rivojlantirish va tasdiqlash;

B2-Oliy ta'limga qabul, tanlash va ta'lim jarayoniga quyish;

B3-O'qitish va ta'lim berish;

B4-Talabalarni intilish va iqtidorlarini qullab quvvatlash;

B5-Talabalarni qaror qabul qilish jarayoniga jalg etish;

B6-Talabalarni baxolash va rag'batlash;

B7-Ta'lim darajasini tashqi baxolash;

B8-Dasturni o'r ganish va monitoring qilish;

B9-Talabalar xoxishlari va shikoyatlari;

B10-Oliy ta'limni hamkorlikda berish;

B11-Ilmiy tadqiqot ishlarida unvonlar berish;

## V—qism. Oliy ta’lim taklifi xaqida axborot.

A-qismda 7-turdagi talablar bo‘lib, ularga tushuntirish xatlari ilova qilingan; V qism va B qismning xar bir bobo yagona talablardan va bir qator muvaffaqiyatli va barqaror amaliyot uchun ko‘rsatkichlardan iborat(ularga izohlar berilgan).

### MAVZULAR

SMKning xar bir qism va bobo umumiyl mavzular va tegishli mavzuchalar bo‘yicha masalalarni ko‘rib chiqadi.

- Talabalar va tinglovchilarga ma’lum mavzu bo‘yicha qanday axborot beriladi;
- Tegishli mavzu bo‘yicha talabalar faolligiga qanday ta’sir ko‘rsatish mumkin;
- Tenglik va farqlar savollarini xar yerda qanday qilib kiritish mumkin.
- Mavzuda turli talabalar tomonidan tashqilotining extiyojlari qanday ko‘rilgan;
- Tegishli mavzuga nisbatan turli ilmiy unvon va malaka beruvchi muassasalarning ma’suliyati qanday farqlanadi.
- Mavzuga tegishli savollar 4 ma’muriy xududda qanday farqlanadi.
- Mazkur SMKning boblari mazmuni Yevropa Oliy Ta’lim tizimining standart va sifat talablariga kay darajada mos keladi.

Ijobiy tajriba va takomillashtirish yo‘nalishlari qay darajada mavzuga mos yoki tegishli.

Xozirgi vaqtida Buyuk Britaniyada juda ko‘p mustaqil oliy ta’lim muassasalari paydo bo‘lmoqda. Buyuk Britaniya oliygochlarda ta’lim olayotgan talabalar tarkibi xam kengayib bormoqda. SMK akademik standartlarni boshqarish bo‘yicha barqaror tamoyillarga va amaliyotga tayanadi. Ma’lum ta’lim muassasalarida oliygoh missiyasidan kelib chiqqan xolda o‘zgartirishlar kiritiladi. Talabalarga sifatli ta’lim standartlari va dasturlari asosida sifatli o‘qitish jarayoni kafolatlanadi. Shuningdek, SMK oliy ta’lim muassasalarining sifatini nazorat mezonи bo‘lib xisoblanadi. Ta’lim muassasalarini baxolash, ularning SMK Talablariga mosligini aniqlash yo‘nalishlarini belgilaydi.

### 2.2. Sifat Qoidalarining majmuasining Buyuk Britaniyaning 4ta ma’muriy xududda qo‘llanishi.

SKM Buyuk Britiyaning butun maydonida birdek kuchga ega bo'lib oliy ta'lim sektoring ma'lum darajadagi integratsiyasi va bo'g'liqligini aks yettiradi. Ammo lekin, bazi xollarda bu Qoidalari majmuasi bazi xududlarda ayrim o'zgartirishlar kiritib qo'llaniladi, masalan Shotlandiyada, UELS va Shimoliy Irlandiyada oliy ta'lim siyosati Buyuk Britiyaning parlamenti yoki assambleyalarga vakolatlangan. Natijada Oliy ta'limga tegishli siyosiy masalalar, xususan o'qish uchun to'lov, xomiylilik shuningdek boshqaruv masalari turlicha bo'lishi mumkin.

### **Shotlandiya ka'biy ta'limida oliy ta'lim.**

Shotlandiyada oliy ka'sbiy malakaning asosiy shakllari bo'lib malakaviy attestatlar va Milliy Oliy Ta'lim Diplomlari xisoblanadi. Bu malakalarning aksariyat qismi Shotlandiyaning malakalar bo'yicha Departamenti tassarufida bo'lib, bu malakalarning akademik stadartlari uchun bevosa javobgarlikni o'z zimmasiga olgan. Bundan tashqari Moliyalashtirish bo'yicha Shotlandiya kengashi Shotlandiya ta'lim bo'limi bilan shartnomaga imzolagan va oliy ta'limning keyingi rivojlanishi uchun mablag' ajratadi.

Shuning uchun, Shotlandiyada sifat Qoidalari majmuasi oliy ta'lim muassasida u yoki bu malakani olish maqsadida qo'llaniladi. Oliy ta'lim Kasbiy ta'lim kollejlari tomonidan ham beralidi. SKMning talablariga asosan talabarga sifatli ta'lim berish va akademik satndarlarga mos kelish agentlik tomonidan rag'batlantiriladi.

### **Kirish kursi sifatini taminlashda SKMni qo'llash.**

Agar talabalar oliy ta'lim kvalifikatsiyasi tarkibining 4-8chi darajalarida malaka yoki akademik unvon olish uchun o'qiyotgan bo'lsa (Angliya, Uels va Shimoliy Irlandiya ) yoki Shotlandiyaning malakalar kvalifikatsiyasi tarkibing 7-12chi darajasida ta'lim olayotgan bo'lsa SKMning talablari qo'llaniladi. Kirish kurslari odatda yillik dasturlar, taylorlov dasturlari shaklida ishlab chiqiladi. Agar kirish kursi aloxida bo'lib oliy ta'limning boshqa dasturlari bo'g'liq bo'lmasa u SKM Qoidalariiga mos kelmasligi va boshqa standartlar orqali tartibga solinishi va ishlab chiqilishi mumkin. Ilmiy unvon berishda Xalqaro darajada malum fanlar doirasida ilmiy kengashlar tashkil qilinishi va tegishli Standartlarga asosan ilmiy ish natijalari xalqaro ekspertlari tomonidan baxolanishi mumkin. Bu xolda alohida qonuniy va tartibga soluvchi sxemalardan foydaliniladi.

#### **3-chi gurux uchun:**

##### **3.1. Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimining Sifat Qoidalari Majmuasi**

1997 yilda Sifat Qoidalari Majmuasi Akademik infra-strukturasining o'rniiga qabul qilindi. Bu o'zgartirishlar yo'nalishlari Agentlikning mutaxassislari va oliy ta'lim vakillari, Oliy ta'limni o'rganish milliy

Komitetining taklif va tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan. Oliy ta'limni o'rghanish Milliy Komitetini Lord Diring boshqaradi. Turli baxolar, fikrlar va maslahatlar asosida Sifat Qoidalari Majmuasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Bakalavr va magistr malakasini, xamda ilmiy unvon beruvchi oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot institutlari uchun SKMda ba'zi farqlar mavjud bo'lib, «ilmiy unvon ta'sis etuvchi tashqilot» kabi eslatmalar kiritilgan va ularga qo'yiladigan talablar oliy ta'lim muassasalarinikidan farq qiladi.

SKM Buyuk Britaniyaning barcha oliy ta'lim muassasalarida malakaviy akademik standartlar va o'qitishning sifatini ta'minlashga yordam berib, ularning strategik yo'nalishlarini belgilashga asos bo'lib xisoblanadi. Barcha oliy ta'lim muassasalaridan kutiladigan samarani, mutaxassislarini raqobatbardoshligini ta'minlashni SKM talab etadi. Xar bir ta'lim muassasasi SKM tamoyillariga asoslanib o'zining mustaqil ichki nazorat tizimini ishlab chiqishi mumkin. Bu bilan u o'zining akademik standartlari va ta'lim sifatini uning samarasini ta'minlaydi.

O'qitish sifati va standartlarga ma'sul mutaxassislar tarkibi.

SKM mutaxassislar uchun texnik qo'llanma bo'lib, oliy ta'lim muassasalari akademik standartlari va o'qitish sifatini ma'lum darajada ta'minlovchi xujjatdir. Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimining strategiyasi va tarakkiyotini belgilashda katta ahamiyat kasb etadi.

### **Oliy ta'limning keng mutaxassislar doirasi**

Fakultet yoki kafedrada faoliyat olib boruvchi xar bir professor o'qituvchi SKM strategiyasi bilan tanish bo'lishi, uzining majburiyatları va vazifalari doirasida undan qo'llanishi lozim. OTMning boshqa mutaxassislar o'z faoliyatlariga tegishli qoidalarga ko'ra ish tutishlari lozim.

### **Talabalar.**

Talabalar va talabalar jamiyatlari uchun SKMni bilish juda muxim bo'lib, ular munozara va bahslarda ta'lim sifatiga qo'yiladigan minimal talablar xaqida uz fikrlarini bildirishlari, ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar berishlari mumkin.

### **Talabalar va tinglovchilar.**

SKM Buyukbritaniyaning barcha ta'lim makonida ta'lim sektori natijalarini qiyoslash va bir sifat darajasiga keltirish uchun muxim asos bo'lib xisoblanadi. Talabalarga ta'lim sifati kafolatlanadi. Oliy ta'lim tizimi bilan keng doirada qiziquvchilar uchun Agentlik Talabalar Milliy Ittifoki bilan hamkorlikda qo'llanma ishlab chiqdi. Unda talabalar manfaatlarini himoya qilish, akademik standartlarni ishlab chiqishga ta'sir etuvchi

**omillar xaqida bat afsil ma'lumotlar berilgan.**

### **3.2. Xomiy tashqilotlarning oliy ta'limdagi o'rni.**

Xomiy tashqilotlar - oliy ta'lim tizimini Qonuniy darajada baxolashda ishtirok etishlari majburiy bo'lib (Shotlandiyada esa, takomillashtirishda xam), o'zлari moliyalashtirayotgan muassasani tekshirishda qatnashadilar. Xomiy tashkilotlar Agentlik bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra tekshiruv jarayonlarida qatnashadilar. Agar nazorat o'tkazilgan oliy ta'lim muassasasida akademik standartlarning sifat ko'rsatkilariga mos kelmaslik aniqlansa, xomiy tashkilot sanksiya qo'yishga mumkin. Xomiy tashkilotlar bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni saytlarda doimiy ravishda keltirib boriladi.

- ✓ Oliy ta'limni Moliyalashtirish bo'yicha Angliya Kengashi;
- ✓ Oliy ta'limni Moliyalashtirish bo'yicha Uels Kengashi;
- ✓ Moliyalashtirish bo'yicha Shotlandiya Kengashi;
- ✓ Shimoliy Irlandiya ish bilan ta'minlash va o'qitish bo'limi.

Teng xuquqlilik va turlilik.

SKMSi teng xuquqlilik va turlilik borasida xilma-xil masalalarini o'z ichiga olgan xolda yondoshadi. Teng xuquqlilik deganda barcha ta'lim oluvchilarga, ta'lim beruvchilarga bir xil hurmat va e'zozlash asosida munosabatda bo'lish nazarda tutiladi. Millatlarning kelib chiqishi, irki, diniy e'tikodi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, ularga bir darajada munosabatda bo'lish. O'qitishning inklyuziv muhiti xar bir talabaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda, ularga teng imkoniyatlarni yaratadi, mumkin bo'lganda inklyuziv modellarni xar bir shaxsning individual qobiliyatlariga moslashtiradi.

Teng xuquqlilik va turlilikga yondoshish quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

1. Ta'lim olish uchun tegishli sharoitlarning yo'qligi, odamlarning ma'lum guruxlarga mansubligi natijasi emas, balki atrof muhit bilan bo'g'liq ijtimoiy barerlarning mavjudligidandir.
2. Xech bir talaba uzining kelib chiqishi yoki ma'lum talablariga kura kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bu tamoyillarga rioya qilish amalda quyidagilarni bildiradi.

- ✓ Oliy ta'lim muassasalari talabani ma'lum ijtimoiy jamiyat yoki talabalar xayotiga tegishli tadbirlarda ishtirokiga to'sqinlik qiluvchi to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralarini ko'radi.
- ✓ O'rta bo'g'in rahbariyatidan to oliy rahbariyatgacha tenglikni ta'minlashga, inklyuziv siyosatni rivojlantirishga intilishlari lozim. Bu

**siyosat xar bir talabani bilim va tajribasini oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.**

**Buyuk Britaniya oliy ta’lim tizimi sifatini nazorat qilish mavzusi bo‘yicha savollar:**

Буюк Британия олий таълим тизими сифатини назорат қилиш қандай шакллантирилган?

- \_\_\_\_\_
- \_\_\_\_\_
- \_\_\_\_\_

Буюк Британия олий таълим тизими сифатини назорат қилиш тизимининг авзаликлари?

- \_\_\_\_\_
- \_\_\_\_\_
- \_\_\_\_\_

Буюк Британия олий таълим тизими сифатини назорат қилиш тизимининг камчиликлари?

- \_\_\_\_\_
- \_\_\_\_\_
- \_\_\_\_\_
- \_\_\_\_\_

## 2- MAVZU: ILMIY TADQIQOTLAR OLIB BORISH, ULARNING NATIJALARINI TIJORATLASHTIRISHDA KADRLAR BUYURTMACHILARI, ILMIY-TADQIQOT MUASSASALARI O’RTASIDA O’ZARO MANFAATLI HAMKORLIK. (4 soat)

Amaliy mashg‘ulotda kadrlar buyurtmachilar bilan hamkorlikni tashkil etishning iqtisodiy mexanizmi va takomillashtirish yo‘llari, oliy ta’lim muassasalarida ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish va marketing xizmatlarini yo‘lga qo‘yishdagi hamkorlik masalalari tahlil qilinadi.

### 2.1 Kadrlar buyurtmachilar bilan hamkorlikni tashkil etishning iqtisodiy mexanizmi va takomillashtirish yo‘llari.

Fundamental tadqiqot akademik institatlarda, oliy o‘quv yurtlarida, tarmoqlarning ixtisoslashgan institutlarida va laboratoriyalarda ishlab chiqilgan konsepsiylar va nazariyalar hisoblanadi. Fundamental tadqiqotlar asosan qaytarilmaslik asosida davlat budjeti tomonidan moliyalashtiriladi. Amaliy

xarakterdag'i tadqiqotlar - mashinalar va asboblar, maxsus muammolarni hal qilish, imkoniyatlarni baholashdir. Tadqiqotlar amaliy yo'nalishga ega barcha ilmiy tashkilotlarda amalga oshiriladi va ham budjet hisobidan (davlat ilmiy dasturlari), ham ushbu loyihamalar buyurtmachisi hisobiga moliyalashtiriladi. Tajriba konstruktorlik, eksperimental ishlab chiqarishlar asosida amalga oshiriladi. Ular ham ixtisoslashgan laboratoriylar, konstruktorlik byurolarida, tajriba ishlab chiqarish korxonasida, yirik sanoat korxonalarining ilmiy ishlab chiqarish bo'limlarida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarida bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- olimlar, professor-o'qituvchilar tarkibi, doktorantlar, aspirantlar, izlanuvchilar, injener-texnik xodimlar, magistrant va talabalar ishtirokida bajarilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari;

- ilmiy faoliyatga va ta'lim jarayoniga tatbiq etish uchun mo'ljallangan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, uslubiy va boshqa turdag'i qo'llanmalar;

- ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar – magistr, fan nomzodi va doktorlari tayyorlash;

- monografiyalar, maqolalar, tezislar, turli to'plamlar, ma'ruzalar va h.k. chop etish;

- ixtiolar uchun patentlar va kompyuter dasturlari uchun guvohnomalar olish;

- texnik qurilma va uskunalarning namunalarini yaratish va ishlab chiqarishga tatbiq etish.

Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalari ilmiy-tadqiqot natijalarining eng asosiy jabhalaridan biri – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishidir. Oliy ta'lim muassasalarining ilm-fan samaradorligiga juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda ta'limni axborotlashtirishda asosiy yo'nalish turli o'quv-fanlari bo'yicha pedagogik dastur vositalarini yaratishdan iborat bo'lib qoldi. Ammo mavjud va ishlab chiqilayotgan kompyuter texnikasi bazasidagi pedagogik dastur vositalari o'qitish nuqtai nazaridan ta'lim sifatida muhim siljishlarga olib kelishi mumkin. Buning sabablaridan biri - kompyuter texnologiyalari an'anaviy tashkil etilgan o'qitish jarayonida joriy etila boshlanganlidir. U o'zining asosiy mazmuni va metodlari bo'yicha bu texnologiyalarga yo'naltirilmagan va ularga ehtiyoj sezmaydi. Ta'lim texnologiyalari doimo axborotli bo'lgan, chunki ular ko'p xil axborotni saqlash, uzatish, foydalanuvchilarga yetkazish bilan bog'liq edi. Kompyuter texnikasi va kommunikatsiya vositalari paydo bo'lishi bilan o'qitish texnologiyalari tubdan o'zgardi. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini amalga oshirilishi quyidagilarning mavjud bo'lishini taqozo etadi:

-ta'limning texnik vositalari sifatida kompyuterlar va kommunikatsiya vositalari;

-ta'lim jarayonini tashkil etish uchun unga mos tizimli va amaliy dastur ta'minoti;

-ta'lim-tarbiya jarayonida yangi o'quv-texnika vositalarini tatbiq etish bo'yicha mos metodik ishlanmalar.

Bugungi kunda turli optik xotirlovchi qurilmalar (videodisklar, optik disklar) keng tarqaldi. Ulardan foydalanish matnli grafik axborotni bir vaqtida birgalikda yozish imkonini beradi, shu bilan birga uni qayta tiklashda yuqori sifatlari tasvir paydo bo'ladi. Yo'ldoshli aloqa tizimlari. Ko'plab yer ustidagi stansiyalarini va yer sun'iy yo'ldoshidagi retrenslyatorlarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunga kelib, bu tizimlar kompyuterlar orasidagi aloqani amalga oshirish uchun ma'lumotlar to'plash hamda televidenie dasturini uzatish uchun ishlatilmoqda.

Axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashni rivojlantirish omillari kompyuterlashtirishning har ikkala yo'nalishini ham rivojlantirib borish zaruriyatiga bog'lanadi. Buning uchun shu sohada qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda uzluksiz ta'lim tizimining hamma bosqichlarida yaratilishi lozim.

Ta'limning kompyuterli (yangi axborot) texnologiyalari – bu axborotni tayyorlash va uni ta'lim oluvchiga uzatish jarayoni bo'lib, uning amalga oshirish vositasi kompyuterdir, ya'ni:

- o'quvchi-talabalarda axborot bilan ishslash mahoratini shakllantirish, ularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish;

- ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish imkonini darajasidagi va yetarli miqdorda axborot bilan ta'minlash;

- o'quvchi-talabalarda tadqiqotchilik mahoratini, optimal qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish.

Axborot texnologiyalaridan faqat o'quv jarayonida emas, balki uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarni ilmiy-texnik va maxsus axborot bilan ta'minlaydigan axborot ishida, ta'lim tizimini boshqarishda va kadrlarning malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash tizimida ham foydalanish mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda axborot texnologiyalarini ta'limga joriy etishda ularning texnik vositalarini integratsiyalash asosiy yo'nalish bo'lmoqda

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanilganda o'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish shakllarini tiklash muammosi yangicha hal etilishi lozim. Agar an'anaviy ta'lim sharoitlarida bilish faoliyatini tashkil

etishning eng ko‘p tarqalgan shakllari individual va frontal shakllar bo‘ladigan bo‘lsa, axborot texnologiyalaridan foydalanish sharoitida ularning ikkalasidan bir vaqtida foydalanish mumkin.

Shuningdek, ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarining joriy etilishi o‘qituvchi (pedagog) vazifasining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi, ya’ni pedagog ta’lim-tarbiya berishdan ko‘ra ko‘proq tадqiqotchi, tashkilotchi, maslahatchi va dasturlovchiga aylana boradi. Bularning hammasi esa o‘qituvchi(pedagog)larni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini o‘zgartirishni talab qiladi.

Hozirgi vaktda oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarini axborot texnologiyalari bilan jihozlash, ta’lim tizimi mazmuni, uni tashkil etish shakllari hamda sifatini oshirish borasida katta ijobiy natijalar bermoqda. Biz bilamizki, o‘qituvchilarning an’anaviy o‘qitish usulida laboratoriya va amaliy ishlar o‘tkazilishiga ko‘p vaqt ajratiladi. Bu mutaxassis tayyorlashning juda muhim tarkibiy qismidir. U nafaqat o‘quvchi-talabaning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, o‘quv materialini o‘zlashtirish samarasini oshirishga, balki muayyan sohada amaliy ko‘nikmalarni hosil qilishga ham ko‘mak beradi.

Yuqorida aytigarlarni hisobga olib, yangi tizim mutaxassis kadrlarini tayyorlash uchun muhim vazifalarni hal etishga yordam bera oladigan yangi samarali, pedagogik uslubni joriy etishda hamkorlik ishlarini amalga oshirish lozim deb o‘ylaymiz. Buning uchun laboratoriya stendlari va o‘quv ustaxonalaridagi mashg‘ulotlar barcha talabalar uchun nafaqat qiziqarli, balki qulay va oson bo‘lishiga erishmoq uchun korxonalarini o‘quv bazalarida o‘tkazilishi lozim.

Bugungi kunga kelib, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida virtual stendlardan muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. O‘quvchi - talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, kompyuter dastur va texnologiyalari orqali ma’lum yo‘nalishda zaruriy ko‘nikmalarni hosil qilishga yordam beradi. Virtual stendlar har bir o‘quvchi-talaba uchun texnikaga o‘zining kirish parametrlarini «buyurishga», o‘z bilimlarini nazorat qilishga imkon beradi. Laboratoriya ishini o‘tkazish, uni zarur tartibda tushunish bilan bog‘liq vaqtadan yo‘qotish esa kompyuter samarasini hisobiga kamaytiriladi. Bunda, ayniqsa, zamonaviy jihozlar va apparatlarni xarid qilish, ularni barcha ta’lim muassasalarida taqsimlash bilan bog‘liq katta miqdordagi moliya zaxiralarning tejab qolinishi muhimdir. Zamonaviy axborot texnologiyasi bo‘lgan oddiy kompakt diskka o‘nlab, ba’zan esa, yuzlab laboratoriya ishlarini joylashtirish mumkin. Endi esa bir dona shunday virtual laboratoriya stendi necha marta arzonga tushishini hisoblab chiqish qiyin emas. Bundan tashqari, ular bilan birga ta’lim muassasalarini yalpi ta’minalash mumkin. Agar ularda Internetga ulangan kompyuter tarmog‘i bo‘lsa, undan ham

yaxshi bo‘ladi. Bundan shuni ko‘rish mumkinki, virtual stendlar ko‘proq qo‘llansa, shunday sarflarning oldini olish mumkin bo‘ladi. Biz o‘qitishning tashkiliy shakllari, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda turli ta’lim maskanlarining o‘quv imkoniga ega bo‘lamiz. Bu esa ma’lum darajada turli muassasalar mutaxassislari bilan hamkorlik ishlarini bajarish imkonini ta’minlaydi. Demak, ta’lim jarayonida virtual stendlardan samarali foydalanish ta’lim sifatini oshiribgina qolmay, balki ulkan moliya zaxiralarini tejashga imkon beradi hamda xavfsiz, ekologik toza muhitni yaratadi. Virtual stendlar joriy etilishi ta’lim, ishlab chiqarish, boshqa davlat muassasalarining umumiyligini yondashuvini talab qiladi. Virtual o‘qitish stendlarini, ayniqsa, qimmatbaho jihozni xarid qilishdan oldin diqqat bilan o‘rganib chiqish zarur. Bu xodimlarni mahalliy sharoitda o‘qitishga, ta’lim oluvchilarni xorij mamlakatlariga guruh-guruh bo‘lib jo‘nashining oldini olishga imkon yaratadi.

Shunday qilib, ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi quyidagilarga olib keladi:

- ta’lim jarayonini, o‘quvchi-talabalarning aniq tayyorgarlik darajasini, qobiliyatlarini, yangi materialni o‘zlashtirish sur’atini, qiziqish va mayllarini hisobga olib ko‘proq individual ravishda yordam berish;
- o‘quvchi-talabalarning bilish faoliyatlarini kuchaytirish, ularning o‘z-o‘zini takomillashtirish, ta’lim va kasbga qiziqishlari hamda intilishlarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish;
- ta’lim jarayonida fanlararo aloqalarni kuchaytirish, borliq hodisalarini kompleks o‘rganish;
- ta’lim jarayonining moslashuvchanligi, omilkorligi, tashkil topish shakllari va usullarini takomillashtirish hisobiga uni doimiy va dinamik yangilash;
- barcha ta’lim muassasalarida o‘qitishning muammoli va kompyuter vositalaridan hamda virtual stendlardan foydalanish;
- ta’lim jarayonining texnologik bazasini hozirgi zamon texnik vositalarini joriy etish yo‘li bilan takomillashtirish.

Bugungi kunda, ta’lim tizimida iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi keng me’yoriy-huquqiy baza mavjud. Bular kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi talablaridan kelib chiqib, ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri uning sifati va ta’lim olish imkoniyatlarini oshirish, yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash sanaladi. Ta’limni mablag‘ bilan ta’milnamay, uzlusiz ta’lim tizimini isloh etishda, malakali kadrlar tayyorlashda muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. O‘zbekistonda malakali kadrlar tayyorlashda moliyaviy boshqaruvni tubdan isloh etish yo‘lida, oliy ta’lim tizimida moddiy-texnik bazasini mustahkamlash,

zamonaviy texnika, o'quv-laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash, davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish, yangi o'quv adabiyotlarini yaratish, eng asosiysi, kadrlarning kasb malakasi va mahoratini oshirish uchun ta'lim tizimini boshqarishda moliyalashni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish zarurdir.

Hozirgi kunda iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida oliy o'quv yurtlarining budgetdan tashqari mablag'larni jalg qilish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan oliy ta'lim muassasalari budgetdan tashqari mablag'larni jalg qilish usul va shakllarini kengaytirish bo'yicha ishlar olib bormoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, oliy o'quv yurtlarining qo'shimcha budgetdan tashqari moliyaviy ta'minlash manbalarini jalg etish bo'yicha faoliyatining asosiy yo'naliishlari quyidagilarni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

#### 1. Ta'lim xizmatlari:

- davlat ta'lim dasturlari va standartlari doirasida (turli mulk shakliga ega korxonalar, tashkilotlar va xorijiy davlatlar uchun shartnomalar bo'yicha) mutaxassislarni tayyorlash;

- davlat ta'lim dasturlari va standartlari doirasidan tashqarida (qo'shimcha ta'lim dasturlari, maxsus kurslar va tayyorlov sikllari; kadralar malakasini oshirish va qayta tayyorlashning turli shakllari, tayyorlov kursları, konsultativ xizmatlar).

2. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-ishlab chiqarish xizmatlari turli korxonalar va tashkilotlar bilan qo'shma faoliyat, intellektual salohiyatni ro'yobga chiqarish).

3. Tashqi iqtisodiy faoliyat (xorijda xalqaro davlatlarda oliy ta'lim muassasining filiallarini ochish, o'zaro manfaatli qo'shma ilmiy faoliyat olib borish va xalqaro loyihalarda ishtirop etish).

4. O'quv ishlab chiqarish laboratoriya, ustaxona, sex va boshqalar faoliyati.

5. O'quv xo'jaliklari faoliyati (biznes-reja ishlab chiqish va amalga oshirish, moliyaviy muhandislik, menejerlik, buxgalterlik va boshqalar).

6. Axborot ta'minoti va xo'jalik faoliyati (nusxa ko'chirish, adabiyot tanlash bo'yicha kutubxona xizmatlari, kitoblarni yo'qotib qo'yganligi va uzoq muddat foydalanganligi uchun penyalar; o'qituvchilar, xodimlar, talabalarga turli xil xo'jalik xizmatlari ko'rsatish; oliy o'quv yurti turar joyi fondi va talabalar turar joylaridagi xizmatlar).

Korxonalar, idoralar va tashkilotlar, shuningdek, turli xayriya fondlari, vasiylik kengashlari, bitiruvchilar assotsiatsiyalari va xayriya asosida real moliyaviy va moddiy madad berish bilan shug'ullanuvchi boshqa jamoat tashkilotlarining xayriya badallari (Kamolot YoIH, LG granti va h.k.lar).

Yuqoridagilardan tashqari, ta'lim xizmatlari sohasida:

- pulli qisqa muddatli seminarlar tashkil qilish;

Ilmiy-ishlab chiqarish faoliyatida:

- xo‘jalik shartnomasi asosida ilmiy-tadqiqot ishlari;

- konsalting va ma’lumotnoma-axborot faoliyati;

- tarmoqlarda yuqori texnologiyani joriy qilish bilan bog‘liq tatbiqiy faoliyat;

- hukumat muassasalari, boshqaruvning hududiy idoralari yoki tijorat tuzilmalarining buyurtmasiga ko‘ra fanlararo tadqiqotlar;

- kichik va o‘rta biznesga ilmiy-texnikaviy yordam ko‘rsatish;

- ilmiy-texnikaviy parklar va yangiliklar inkubatoriylarini tashkil etish;

- tijorat va xo‘jalik hisobi aosidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan yakka tartibdagi shartnoma bo‘yicha ilmiy ishlar olib borish;

- oliv ta’lim muassasasi olimlarining kashfiyot va ixtiolariga patent va litsenziya sotish;

- tijorat firmalari va korxonalar bilan ilmiy tadqiqot markazlari va laboratoriyalari tashkil qilish;

- chet ellik investorlar bilan hamkorlikda qo‘shma korxonalar tuzish;

- to‘lov asosida ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etish;

Tashqi iqtisodiy faoliyatda:

- chet ellik talabalar, stajer-ilmiy-tadqiqotchilar, magistrler va ilmiy izlanuvchilar ta’limini tashkil etish;

- xorijiy oliv ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda fakultetlar tashkil etish;

- xorijiy sheriklar bilan qo‘shma korxonalar tuzish;

- chet el jamg‘armalari bilan oliv ta’limni qo‘llab-quvvatlash programmalarida qatnashish;

- O‘zbekiston talabalarini chet el oliv ta’lim muassasalariga yuborish;

- turli xil chet el investitsiyasini jalb etish.

Yuqoridagi sanab o‘tilganlar, ta’lim muassasalarida joriy qilish mumkin bo‘lgan ta’lim xizmatlari kelajakda, albatta, amaliyotda joriy qilinadi. Ushbu xizmatlar ro‘yxatini yanada rivojlantirish, davom ettirish o‘z qo‘limizda. Shu bois, maqsadimiz bitta- oliv ta’lim muassasalari, qolaversa respublikamiz budgetini iqtisodiy-moliyaviy jihatdan barqarorligini ta’minlash, shuningdek, oliv o‘quv yurtlarida ko‘rsatilayotgan ta’lim xizmatlari soni va sifatini ko‘tarish va innavatsion faoliyatini joriy qilish hisobidan budgetdan tashqari mablag‘lar tushumini ko‘tarishga xizmat qilishdan iborat.

Oliv ta’lim faoliyatining takomillashtirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun 15-20 yildan keyin dunyo miqyosida va O‘zbekistondagi hayotning barcha jahhalarida iqtisodiyotda, ijtimoiy hayotda, demografik tizimda, o‘zgarishlarni ilmiy asoslangan bashoratini aniqlab olish va shunga muvofiq baza

yaratish zarur.

Dunyo mamlakatlari kabi bizning respublikamizda xizmat sohasini yanada rivojlanishi va aynan ta'lism sohasining oliv ma'lumotli mutaxassilarning hissalari oshishi kutilmoqda. XXI asrning boshlarida Rossiyada aniq fan soxalari muxandislarga va informatsion texnologiyalarga, dasturchilarga, kosmonavtika, meditsina texnikasi, neft va gaz, ularni qayta ishslashga doir mutaxassilar hamda lazer sohasida faoliyat ko'rsatayotgan oliv ma'lumotli mutaxassislarga talab keskin orta boshladi. Ushbu holat O'zbekistonda ham kuzatilmoqda. Iqtisodiy ta'lism sohasida marketing - menejment, axborot texnologiyalari, yengil sanoat uchun muhandislar tayyorlashga alohida ahamiyat berilmoqda. O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini yo'lga qo'yish sohaga doir qator yangi oliv ta'limga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash zaruriyatini yaratdi. Demak oliv ta'limgagi marketing faoliyati xam ana shu o'zgarishlarga mos ravishda faoliyat olib borishi bugungi davr talabiga aylanmoqda.

Bugungi kundagi o'ta muhim masalalardan biri bu nazariyani amaliyotga yaqinlashtirishdir.

Zamonaviy texnika va texnologiyalarni olib kelish uchun investitsiyalarni jalg qilish va ular bilan samarali ishlay oladigan kadrlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish.

Mavjud muammolarni bartaraf etish uchun, ya'ni oliv ma'lumotli mutaxassislardan samarali foydalanish hamda davlat mablag'larini ta'limga maqsadli yo'naltirish uchun, avvalo quyidagilar zarurdir:

- oliv ma'lumotli kadrlarning (magistratura ixtisosliklari ro'yhati va bakalavriat ta'limi yo'nalishlari) oliv ma'lumotli mutaxassislari bilan to'ldirilishi lozim bo'lgan lavozimlarning talabalari mos kelishlik darajasini belgilash, ya'ni mutaxassislar yetishtirishning iqtisodiyot sohalaridagi lavozimlar bilan mutanosibligi;

- ta'lim yo'nalishlari bo'yicha, yangi klassifikatorda qabul qilingan umumiyl va qo'shimcha ehtiyojlarni aniqlash, umumiyl ehtiyojlarga muvofiq oliv ma'lumotli mutaxassislar bilan ta'minlanganlik soha me'yorlarini ishlab chiqish;

- tarmoqning kengaytirilishi va mehnat murakkabligini sifat jihatdan takomilashtirilishi bilan bog'liq mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni belgilash. Bunda turli sabablar – avlodlar almashinuv, migratsiya, xodimlar qo'nimsizligi va boshqalar bo'yicha kamayish darajasini albatta hisobga olish lozim bo'ladi;

- ehtiyojni OTMlar, mintaqalar, bakalavriat yo'nalishlari va magistratura ixtisosliklari hamda oliv ta'limning ixtisosliklari bo'yicha talabalar qabuli bilan mutanosibligini ta'minlash, ya'ni oliv ta'limning har bir yo'nalishi bo'yicha ehtiyojlarni hisoblab chiqish (bu Klassifikator, malakaviy tavsiflar va Davlat standartiga muvofiq amalga oshiriladi);

- oliv ma'lumotli mutaxassislarga istiqboldagi ehtiyojni belgilash bo'yicha tarmoqlar metodikasini yaratish.

Tuzilmaviy siljishlar asosida mutaxassislarga bo'lgan talabni bashoratlash mulk va xo'jalik yuritishning ayrim shakllari ustivorligi hamda rivojlanishni hisobga olib, tarmoqlar va mintaqalar iqtisodiyotidagi tuzilmaviy qayta qurishlar asosiy yo'nalishlarni aniqlash negiziga quriladi. 10-15 yillik davrga bashoratlashning jiddiy yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanishi lozim:

- iqtisodning, ayniqsa sanoatning eng muhim yo'nalishlarida ishlab chiqarish xajmining o'sish dinamikasining kuchayishi;

- bandlik tizimida yuz berayotgan va kutilayotgan yirik o'zgarishar (moddiy ishlab chiqarishning a'naviy tarmoqlaridan xodimlarni bozor infratuzilmasi tarmoqlariga va xizmat sohasiga qayta taqsimlanishi);

- xususiylashtirish va kichik biznesni rivojlantirish hisobiga xo'jalik yurituvchi sub'ektlar sonining o'sishi (bu biznes, marketing, moliya va hisob-kitob sohasida mutaxassislarga talabni oshishiga olib keladi).

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko‘zda tutilgan ta’lim xizmatlariga, moddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda yuqori malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashinng muntazam monitoringini va ularga bo'lgan talab hamda taklifni bashoratlash keng qamrovli vazifa bo'lib, u mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni o'rganishni talab etadi:

- respublika, viloyat, iqtisod tarmoqlari va ijtimoiy infratuzilma, oliv ta'lim yo'nalishlari miqyosida;

- malaka (bakalavrlar, magistrler) va ta'lim (oliv, oliv ta'limdan keyingi) darajasi bo'yicha.

Bunda tadqiqotning quyidagi usullaridan foydalanish lozim:

- ijtimoiy tadqiqotlar;

- O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlardagi ta'lim xizmatlarining qiyosiy tahlili, kadrlar tayyorlash bo'yicha oliv ta'lim muassasalari imkoniyatlarini o'rganish (miqdoriy, yo'nalishlar spektori va mavjud meyorar bilan bog'langan ta'lim ixtisosliklari);

- texnikaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar va bozor kon'yukturasi bilan bog'lab kadrlarga bo'lgan talabni modellashtirish;

- me'yor va me'yoriy xujjat asosida kadrlarga bo'lgan talabni bashoratlash;

- oliv ta'limning ahvoli va rivojlanish monitoringi tizimini ishlab chiqish;

- aholi bandligini baholash asosida kadrlarga bo'lgan ehtiyojni o'rganish;

- tegishli ma'lumot olishga bo'lgan aholining ehtiyojarini qondirish imkoniyatlarini belgilash;

- sohalarda alohida-alohida kadrlarga bo'lgan ehtiyoj qonuniyatlarini

o'rganish, bu oliv ma'lumotli mutaxassislarga respublika iqtisodiyoti barcha sohalardagi ehtiyojni ta'minlash imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan kichik tizimlarning o'zi ancha murakkab tuzilmadan iboratdir, chunki masalan o'quv dasturlarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimi quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- talabning ta'lim olishga layoqatini va OTMning mutaxassislarni o'qitish uchun imkoniyatlarini o'rganish;
- kadrlarni o'qitishga bo'lgan ehtiyojni aniqlash uchun OTM marketing bo'limlari ishini takomillashtirish;
- ta'lim maqsad va vazifalarini aniqlash;
- mazkur maqsadlarga erishish uchun ta'lim tizimini isloh qilish;
- mutaxassislar tayyorlash dasturi turli tizimlari uchun meyoriy xujjatlar va standartlar yaratishni qamrab oladi.

Ma'lumki, ta'lim jamiyat rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Qanday sohada bo'lmasin, yuqori bilimga ega mutaxassislar ilmiy-tadqiqot ishlanmalari bilan shug'ullanish, yangi mahsulot turlarini yaratish va texnologiyalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Jahondagi globallashuv jarayonlari va kompaniyalar o'rtaсидаги mavjud chuqur raqobat muhiti mutaxassislarni ham favqulodda shunga tayyor bo'lishlarini talab etadi. Ular nafaqat o'z g'oyalarini rivojlantirish va yaratilgan nazariy modellarini amalda joriy etish uchun qulay sharoitlarni ta'minlaydilar, shu bilan birga, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi uchun ham muhim intellektual omil hisoblanadilar.

Bugungi kunda jahonda texnologiyalar va axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi davrida yuqori malakali kadrlarni egallah va yollash uchun kompaniyalar o'rtaсидада raqobat kurashi birmuncha oshdi. Bu nafaqat tijorat tashkilotlariga, balki ilmiy-tadqiqot markazlari, o'quv yurtlariga ham tegishlidir. Shunday ekan, zamonaviy ta'lim sifati to'g'risidagi masala birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo'lgan muammo hisoblanadi. Aynan, OTMlar kelgusi mutaxassislarning aniq kasbiy sohasida bilimlarini shakllantiradi.

OTM tomonidan taklif etilgan ta'lim xizmatlari sifati akkreditatsiya bo'yicha davlat organlarining rasmiy baholash o'tkazishi asosida amalga oshiriladi. Bitiruvchilarning bilim natijalari esa ish beruvchilar tomonidan baholanadi. Biroq aniqlash lozimki, qaysi asosiy omillar ta'lim jarayoniga ta'sir ko'rsatadi? Albatta, bu ta'limni moliyalashtirish, qulay sharoitlarni yaratish, OTMning yuqori rivojlangan tashkiliy tarkibining mavjudligi, yuqori darajada texnik qurollanganlik va boshqalar hisoblanadi. Biroq talabalarning yuqori bilim darajasini ta'minlovchi eng muhim ahamiyatli resurs – pedagogik kadrlar hisoblanadi. Ularning malakasi, kasbiy darajasi, pedagogik mahorati, kommunitatbelligi, fanni rivojlantirishda

qo'shgan hissasi va boshqa ko'plab omillari kelgusida bitiruvchilar bilimini yuqori darajada ta'minlash imkonini beradi. Aynan shuning uchun o'quv yurti rahbariyati pedagogik xodimlarning ahamiyatga ega rolini oshirishi va ularni samarali boshqarish usullarini takomillashtirishi zarur. Shunday ekan, bu holat o'quv yurtlarining barcha faoliyat turlari bilan chambarchas bog'liqdir. OTMda pedagogik kadrlarni boshqarish sifatini ta'minlashga e'tiborni qaratish, ular bilan o'zaro aloqadorlik samaradorligini oshirish, hamda faoliyati natijalaridan manfaatdorligini ta'minlash zarur.

Oliy ta'lif muassasalari mamlakat rivojlanishiga xizmat qiladi. Intellektual resurslarning yuksak darajasiga asoslanuvchi texnologiyalarning taraqqiy etishi va ushbu resurslarga egalik qilishni istagan davlatlarning raqobati XXI asrda nafaqat iqtisodiy tomonidan, balki ijtimoiy va siyosiy yuksalishning asosiy omili bo'lib xizmat qilmoqda. Dunyo mamlakatlaridagi eng yuqori reytingga ega oliy ta'lif dargohlarini qarab chiqadigan bo'lsak, ularning barchasi rivojlangan davlatlar hududida joylashgan va ta'kidlash lozimki, ular o'z mamlakatlarining dunyo hamjamiyatidagi o'rnnini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ular tomonidan tarbiyalangan mutaxassislarga mehnat bozorida yuqori talab bo'lishi bilan birga, dunyo ahamiyatiga ega kashfiyotlar va tadqiqotlarning salmoqli ulushi aynan ushbu universitetlarga to'g'ri keladi.

Hozirgi vaqtida OTMlarida ta'lif tizimining shakllanishi yangi innovatsion sharoitlarga va iqtisodiyot talablariga muvofiqligini ta'minlashga barcha oliy o'quv yurtlari amalda harakat qilmoqda. Ayni chog'da, mamlakatimizda personalni boshqarish sifati sohasidagi siyosat ham keng ko'lamda amalga oshirilmoqda.

Mutaxassislar tayyorlashga marketing yondashuv – bu iste'molchilarga yo'naltirilgan bo'lib, kelgusida ish beruvchilar tomonidan muayyan mutaxassisliklarga bo'lgan talabni shakllantiradi. OTMlarda mazkur tamoyillar korporativ hamkorlikni rivojlantirish, boshqaruvning yuqori zvenosiga ishonch sifatida ham, ta'lif tizimini boshqarish usullaridan biri sifatida ham rahbarlarning liderligiga olib kelishi mumkin. Ahamiyatli jihat, aynan OTMda o'quv jarayoni sifatiga ta'sir ko'rsatish jarayoni bo'lib hisoblanadi.

OTMlarga shunday bozor omillari ta'sir ko'rsatadiki, birinchidan, korxona va tashkilotlar tomonidan bitiruvchi mutaxassislarga talab shakllansa, ikkinchi tomonidan, abituriyentlarning oliy o'quv yurtiga kirish uchun shart-sharoitlari shakllanadi. Shunga ko'ra, o'z navbatida, o'quv yurti kasbiy sohada zaruriy tayorgarlikka ega bitiruvchilar bilan ta'minlash bo'yicha mehnat bozoriga va iste'molchilarga ta'sir ko'rsatadi.

### **2.3. Oliy ta'lim muassasalarida ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish va marketing xizmatlarini yo'lga qo'yishdagi hamkorlik masalalari.**

Hozirgi davrda xalqaro hamkorlik masalalari eng dolzARB muammolarga aylandi. Bugungi tobora globallashib borayotgan zamonda o'zaro integratsiya jarayonlari yanada kuchayib bormoqda. Dunyoda turli xalqlar va millatlar mavjud ekan ular o'rtasida doimo iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy, ilmiy va boshqa munosabatlar bo'ladi. Bunday munosabatlarning shakllanishi tarixning uzoq davrlariga borib taqaladi. Davr ruhidan kelib chiqqan holda ular o'zgarib turgan. Bugungi kunda hech qaysi millat yoki davlat alohida izolyatsiyada yashay olmaydi. Taraqqiy etishni istagan har bir sub'ekt boshqalar bilan o'zaro ijtimoiy aloqalarga kiradi. Shunday ekan mamlakatimizda va xalqaro maydonda bunday masalalarni to'g'ri hal etish, ularning mexanizmlarini ishlab chiqish muhim masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoniga binoan quyidagilar nazarda tutiladi:

- sohada DXShni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat OTM faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50%dan oshirish;

- O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantirish, ularni Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities TOP-500 ro'yxatiga kiritish, shuningdek respublikadagi kamida 10 ta OTMni ushbu reytinglarning TOP-1000 ro'yxatiga kiritish;

- o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish, ilg'or standartlarni joriy etish, jumladan, nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, OTMning akademik mustaqilligini ta'minlash;

- OTMdA ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

- OTMdA texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish;

- mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi "xab"ga aylantirish;

- xalqaro hamkorlikni, shu jumladan professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishini yo'lga qo'yish va h.k.

Konsepsiya bosqichma-bosqich amalga oshiriladi – tegishli davrga mo‘ljallangan maqsadli parametrlar va asosiy yo‘nalishlardan kelib chiqib, har yili alohida “Yo‘l xaritasi” tasdiqlanadi.

OO‘MTV huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda O‘zbekiston oliv ta’lim muassasalari rektorlari kengashi negizida Respublika oliv ta’lim kengashi tashkil etildi. Bu tashkiliy, tahliliy va maslahat vazifalariga ega NNTdir. Uning faoliyati natijalari, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar soha vazirligining hay’at majlisida yiliga kamida ikki marta ko‘rib chiqiladi va ular yuzasidan qarorlar qabul qilinadi. Shuningdek, Kengash ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar yuzasidan har chorakda Prezident Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib boradi.

Davlat OTM rahbarlari tomonidan xorijiy mamlakatga xizmat safariga chiqishning yangi tartibi joriy etilmoqda. Bo‘ysunuvi bo‘yicha vazirlik va idorani xabardor qilish, OTM saytida asosiy ma’lumotlarni (*mamlakat nomi, tashrif maqsadi va rejasi*), safar natijalari yuzasidan esa – OTM kengashiga amalga oshirilgan ishlar va xarajatlar to‘g‘risida taqdim etilgan hisobotni joylashtirish lozim. Bu DXX, Milliy gvardiya, Adliya vazirligi, IIV, Mudofaa vazirligi va DBQ tizimidagi OTMlarga tegishli emas.

Harakatlar strategiyasida xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlarni, chet eldag‘i hamyurtlarimiz va turdosh tashkilotlar bilan aloqalarni yanada mustahkamlash vazifalari belgilangan. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xorijiy mamlakatlarning tashkilotlari va diplomatik vakolatxonalari, xorijiy davlatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan turdosh tashkilotlar bilan samimiy va o‘zaro hurmatga asoslangan aloqalar o‘rnatish hamda izchil rivojlantirishga qaratilgan ishlarni tizimli amalga oshiradi.

Bu boradagi ishlar xalqaro hamjamiyatda respublikaning nufuzi va maqomini yanada yuksaltirish, xorijiy mamlakatlar bilan millatlararo munosabatlar va do‘stona aloqalarni yanada rivojlantirish va uyg‘unlashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil qilish va olib borishda ustuvor vazifalari sifatida belgilangan.

Oliv ta’lim muassasalaridagi marketing xizmatlari bo‘limlariga quyidagi asosiy vazifalar yuklatilgan:

- Ta’lim xizmatlari bozorida marketing tadqiqotlarini uzluksiz amalga oshirish, ta’lim xizmatlariga qo‘yilgan, ya’ni bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha bitiruvchilarining kasbiy mahoratini (malakaviy sifatlarini) o‘rganish hamda ularning ish beruvchilar (iste’molchilar) talablariga muvofiqligini aniqlash.

- Bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim xizmatlari bozori va kon'yunkturasiga ta'sir ko'rsatuvchi turli xil omillar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tahlil qilish.

- Bitiruvchilarni oldindan ishga taqsimlash tizimini tashkil qilish va amalga oshirish;

- Bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarga talab va takliflar nisbatini o'z ichiga olgan holda ishga taqsimlash ob'ektlari – ta'lim xizmatlari iste'molchilarini aniqlash va ular to'g'risida to'liq ma'lumotlar bankini yaratish;

- Bitiruvchilar haqida ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha davlat granti va to'lov-shartnoma bo'yicha ma'lumotlar bankini yaratish;

- Talabalar qabuli ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida ish beruvchilarning mutaxassislarga bo'lgan talablari bo'yicha joriy va istiqbolli «buyurtmalar portfeli»ni shakllantirish.

Shakllangan ushbu tizim bitiruvchilarning mehnat bozoriga kirib borishda amaliy natijalar bermoqda. Ta'lim xizmatlari bozorida marketing tadqiqotlarini uzluksiz amalga oshirish, ta'lim xizmatlariga qo'yilgan, ya'ni bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarning kasbiy mahoratini (malakaviy sifatlarini) o'rganish hamda ularning ish beruvchilar (iste'molchilar) talablariga muvofiqligi aniqlab boruvchi indikatorlarni yaratish lozim.

Bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim xizmatlari bozori va kon'yunkturasiga ta'sir ko'rsatuvchi turli xil omillar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tahlil qilish asosida bitiruvchilarni oldindan ishga taqsimlash tizimini tashkil qilish va amalga oshirish borasida mutaxassislik kafedralari mudirlari, magistratura bo'limi boshlig'i bilan hamkorlikni oshirish kerak.

Bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarga talab va takliflar nisbatini o'z ichiga olgan holda ishga taqsimlash ob'ektlari – ta'lim xizmatlari iste'molchilarini (ish beruvchi korxonalar, turli mulkchilik shakliga ega bo'lgan tashkilotlar - davlat va mahalliy boshqaruva organlari, davlat va nodavlat tashkilotlari va h.k.) tuzilmasini baholash, geografik joylashishini aniqlash va guruplash, potensial imkoniyatlarini tashhis qilish orqali to'liq ma'lumotlar bankini yaratish ishlarini sifatini oshirish kerak. Xar yili bitiruvchilari haqida (ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha davlat granti va to'lov-shartnoma bo'yicha familiyasi, ismi-sharifi ko'rsatilgan holda) ma'lumotlar bankini yaratish to'liq amalga oshirishirilishi xam asosiy vazifadir .

Talabalar qabuli ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida ish beruvchilar (korxona va tashkilotlar)ning mavjud ta'lif yo'naliishlari yoki mutaxassisliklarga bo'lgan talablari (buyurtmalari)ni hisobga olgan holda davlat grantlari va to'lov-kontrakt bo'yicha joriy va istiqbolli «buyurtmalar portfeli»ni shakllantirish borasida ishlar amalga oshirilgan.

Ish beruvchi korxona va tashkilotlar bilan kadrlar tayyorlash, ularni ishga joylashtirish, o'quv-ilmiy ishlab chiqarish markazlari (poligonlari, amaliyot bazalari) tashkil etish bo'yicha asosnoma va takliflar tayyorlash hamda moddiy-texnik hamkorlikka oid shartnomalar to'zish, shuningdek ular bilan qayta aloqalarni o'rnatish borasidagi ishlar yo'lga qo'yilishi kerak. Bakalavriat yo'naliishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha talabalarning kasbiy mahoratini oshirish va bitiruvchilarni ishga taqsimlash borasida institutning tegishli bo'linmalari (kafedralar va fakultetlar) bilan hamkorlik qilish, ular tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligini tahlil qilish va baholashda ishtirok etish, umumiy marketing siyosatini amalga oshirishda barcha tegishli bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ijobjiy ishlar stretegiyasini ishlab chiqish lozim. Institutda bitiruvchilarni ishga joylashtirish bo'yicha tizim shakllangan va uning faoliyati takomillashtirish bu oliy ta'lif tizimini asosiy vazifasi xisoblanadi. Mazkur tizim o'z ichiga taqsimot komissiyasi faoliyatini, fakultetlarda va kafedralarda bitiruvchilar bilan ishlashni, ish beruvchilar bilan aloqa o'rnatish va mustahkamlashda barcha rahbar xodimlarning jalb etilishini, bitiruvchi talabalar va ish beruvchi korxonalar vakillarini uchrashtirish tadbiralarini, ish joylari va bitiruvchilar ma'lumotlar bazasini tuzish va kengaytirishni qamarab olgan. Xar bir institut ilmiy kengashining qarori bilan mutaxassislik kafedralalarining mudirlari tegshili ta'lif yo'naliishlari bo'yicha bitiruvchilarni kasbga yo'naltirish va ishga joylashishga ko'maklashish uchun mas'ul qilib tayinlanganadi. Buning natijasida aksariyat hollarda bitiruv oldi amaliyotni potensial ish beruvchi korxonlarda o'tashga erishish mumkin. Davlat granti asosida o'qishni tugatayotgan talaba, institut va potensial ish beruvchi korxona o'rtasida ish bilan ta'minlash haqida uch tomonlama shartnomalar sifatli bulishi kerak. Fakultet dekanlari tomonidan talabalarning yashash joylariga yaqin bo'lgan tashkilot va korxonalar bilan mutaxassislar yetkazib berish bo'yicha ishlar olib borish ta'lif sifatiga ta'sir etilishi lozim.

Hozirgi sharoitlarda mamlakatimiz iqtisodiyotini davr talablariga ko'ra modernizatsiya qilishning hal qiluvchi omillaridan biri bo'lib yuqori malakali kadrlar tayyorlash vazifasini amalga oshiruvchi oliy ta'lif muassasalari bitiruvchilarining sifatini oshirish sanaladi. Ayni kunlarda mana shu masalani ijobjiy hal etish yo'li bilan mamlakatimizning oliy ta'lif muassasalari xalqaro oliy

ta'lim tizimida o‘z o‘rnini topishga izchil harakat qilib bormoqda. Ta’lim indeksi (ma’lumotlilik darjası, yoshlarning barcha ta’lim darajalari bilan qamrab olinishi darjası)ning mamlakat YaIM o‘sishi va turmush sharoitlarining yaxshilanishi bilan birga o‘sib borishi shaxs salohiyatining ortib borishini ham kafolatlaydi. Bu esa oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining sifatini rivojlantirish misolida yaqqol ko‘rinadi.

Oliy ta’lim tizimida yuqori miqdoriy ko‘rsatkichlarga erishish bilan birga innovatsion iqtisodiyot sharoitlarida ish beruvchilar tomonidan OTM lar bitiruvchilariga bildirilayotgan talablar orqali namoyon bo‘luvchi sifat o‘zgarishlarining ijobjiy xususiyatga ega bo‘lishi ham juda muhimdir. Shuni qayd etib o‘tish kerakki, so‘nggi bir necha o‘n yilliklarda oliy ta’lim tizimi uchun birinchi o‘rinda miqdoriy ko‘rsatkichlarning o‘sishi xosdir. Bozor islohotlarini amalga oshirish davomida oliy ta’lim sohasida ta’lim xizmatlaridan foydalanishning bir necha barobar ortishi kuzatildi. Buning ustiga OTM bitiruvchilarining aksariyat qismi o‘zlari egallagan mutaxassislik yo‘nalishlarida ishga joylashishda ko‘plab muammolarga duch kelib, bu bir tomonidan egallangan mutaxassislikning bozor sharoitlariga moslashtirilmaganligi bilan ham bog‘liq bo‘lmoqda. Shuning uchun ham oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining sifat ko‘rsatkichlari bugungi kunga kelib oliy ta’lim xizmatlari sohasiga u yoki bu darajada daxldor bo‘lgan har bir sub’ekt uchun o‘tkir muammoga aylanib qoldi.

Bugungi kunlarga kelib oliy ta’lim tizimida shunday tendensiya yuzaga keldiki, bunda bozor munosabatlariga o‘tishning ilk davrlarida mavjud bo‘ladigan noqulay iqtisodiy va ijtimoiy omillarga (budget sohasidagi past ish haqi, ilmiytadqiqot ishlariga davlat tomonidan mablag‘larning kam ajratilishi, o‘quv jarayonidagi moddiy-texnik bazaning eskirganligi, yuqori inflyatsiya darjası kabilalar) bog‘liq holda miqdoriy ko‘rsatkichlarning oshib borishi bilan bir qatorda oliy ta’lim ahamiyatining pasayishi (OTMga o‘qishga kirishga intilishning sustligi), oliy ta’lim sohasiga yosh, serg‘ayrat xodimlar kirib kelishining kamayishi, umumiy ta’lim darajasining pasayishi kabilalar ham ro‘y berdi. Shu bilan birga mamlakatimizda oliy ta’lim bitiruvchilari sifatining rivojlantirilishiga qulay demografik vaziyat ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda.

Mana shularga bog‘liq holda mamlakatimizda oliy ta’lim sohasini modernizatsiyalash, uning moddiy-texnik asosini yangilash, sohaga iqtidorli pedagog-kadrlarni jalg qilish va ularning malakasini uzlucksiz oshirib borish bilan birgalikda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olishga jalg etilayotgan abiturientlar kontingenti sifatini oshirish va talabalarning maqsadli kontingentini kengaytirish masalalarini hal qilish muhim bo‘lib sanaladi.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarining maqsadli kontingentini kengaytirish

quyidagilar natijasida ro‘yobga chiqarilishi mumkin deb hisoblanadi:

- masofaviy o‘qitish tizimini rivojlantirish;
- imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ularga ta’lim olishning qulay shart-sharoitlarini yaratish;
- xorijiy fuqarolarning ta’lim olishlari uchun moslashtirilgan o‘quv dasturlarini kengaytirish;
- modernizatsiyalash sharoitlarida oliy ta’limni boshqarish tizimi – fuqarolarning turli xil qatlamlarini (akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarini tayyorlov kurslariga, ikkinchi mutaxassislikni egallash istagidagi fuqarolarni ta’lim jarayoniga jalb qilish kabilari);
- ta’lim muassasasining ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish (uzoqdan kelganlar uchun yotoqxonalar qurish va ularni jihozlash, sport bilan shug‘ullanish, dam olish va bo‘s sh vaqtini mazmunli o‘tkazish uchun ob’ktlarni barpo etish);
- akademik litseylar va KHK lar o‘quvchilarini turli xil tanlovlardan, ilmiytadqiqotchilik ishlari ,olimpiadalar jalb etish, iqtidorli yoshlar uchun maktab-internatlar ochish, maktablarda profilli sinflarni tashkil etish, OTM ning yetakchi pedagog-o‘qituvchilari tomonidan dars mashg‘ulotlarini tashkil etish;
- OTM joylashgan mintaqasi uchun ustivor bo‘lgan yo‘nalishlarda mutaxassislarni tayyorlashning kelishilgan holda olib borilishi;
- qisqa muddatli kurslarni rivojlantirish (talabalar, o‘quvchilar uchun yozgi kurslar, yuqori yoshdagilar uchun malaka oshirish yoki yangi kasbni egallash bo‘yicha qisqacha kurslarni tashkil etish).

## 2-AMALIY ISHNI BAJARISH

**Materiallar:** 1 va 2 -tarqatma materiallar

**Ish tartibi:** individual, juftlikda, kichik guruhlarda, yalpi muhokama.

**Ishdan maqsad:** tinglovchilarga innovatsion ta’lim menejmentda tizimli yondashuv va ta’lim jarayoni monitoringni tashkil etish ahamiyatini ochib berish. Innovatsion ta’lim tizimida monitoring jarayonini tashkil etish. Innovatsion ta’lim tizimida tizimli menejment yondoshuvi.

Tinglovchilarni Respublika miqyosida Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion ta’lim menejmentda tizimli yondashuv va ta’lim jarayoni monitoringni tashkil etish ahamiyatini ochib beriladi va innovatsion ta’lim tizimida tizimli menejment yondoshuvi ahamiyatini guruhlarda kelishib ishlagan holda aniqlash hamda muhokama qilish.

Kurs tinglovchilari 2-tarqatma material beriladi.

So‘ngra tinglovchilar guruhi-guruhi bo‘lib 1 tarqatma materialdagi savollarga o‘z javoblarini muxokama qilgan xolda to‘g‘ri javoblar bilan solishtirishtiriladi.

Natijada, trener bilan birlgilikda savol-javoblar o'tkazadilar.

### **Tinglovchilarga beriladigan tarqatma materiallar**

#### **2.1.-chi tarkatma material:**

Ta'lim jarani monitoringi - bu muntazam ravishda bu jarayoni kuzatish, muntazam ravishda bu jarayoni kuzatish, taxlil qilish ,baholash, istiqbolni belgilash va natijaviy ko'rsatkichlar dinamikasini baholashdir. Ta'lim sifati monitoringini amalga oshirish uchun axborotni to'plash, qayta ishslash, saqlash, tarqatish kerak. Mantiqiy ketma-ketlikdagi monitoring tizimi maqsadli ravishda ta'lim muassasasining o'quv ishlari, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy tadqiqot, iqtisodiyot va tadbirkorlik buyicha faoliyatning mazmunan miqdoriy darajasini nazorat etadi, istiqbolni belgilaydi.

Ta'lim sifati monitoringi-maxsus tashkil etilgan maqsadli nazorat va istiqbolni belgilashdir. Mavjud axborotlarni tizimga solish, maxsus tadqiqotlar o'tqazish va miqdorini o'lchash monitoring usullariga kiradi. Ta'lim jarayoni sifatini boshqarishning samarali tizimini tashkil etish uch vazifani bajarishni talab etadi. Buni 1-sxemada ko'rshimiz mumkin.



Asosiy vazifalar quyidagi ko'rsatkichlardan iborat:

-Me'yoriy xujjatlarning bajarilish sifatini muntazam tahlil(davlat qarorlari, yuqori rahbariyat farmoyishlari, ilmiy kengash qarorlari);

-ta'lim jarayonining tashkil etilishi rejalashtirilishi, amalga oshirilishi, darslarni o'quv uslubiy materiallar bilan ta'minlanganligi;

-o'qitish texnologiyalar sifatini taxlil etish, zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi, o'quv-metodik materiallar, professor-o'qituvchilar tomonidan ilg'or o'qitish texnologiyalarini tarqatish;

-ta'lim jarayonini kadrlar bilan ta'minlanganligining tahlili, ilmiy tadqiqot, ilmiy-uslubiy ishlar, professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyati tahlili;

-kadrlarni joylashtirishni sifatini tahlil etish, o‘zlashtirish darajasi(joriy, oraliq, yakuniy reyting ballari) tahlili.

O‘quv jarayonini zamonaviy tashkil etish, uning sifatini ta’minlashda kuyidagilar muhimdir:



Ta’lim sifatining ichki nazorati quyidagi komponentlardan iborat:



Ta’lim jarayonini sifatini nazorat qilish uchun turli darajadagi dasturlar tuziladi. Dastur o‘z ichiga zaruriy ko‘rsatkichlarni, sifat indikatorlarni, tegishli

yo'naliшга mos ravishda kiritiladi ( o'quv ishlari, ilmiy tadqiqot ishlari, ma'naviy-ma'rifiy va boshqalar).

O'quv jarayoni nazoratida sifat monitoringi bo'limining faoliyati mexanizmi:

- Rektorning komissiya tarkibi, manitoring o'tkazish tartibi, nazorat shakli va yakuniy xulosaviy xujjatlarning topshirish haqidagi farmoyishi;
- Tekshiruv grafigini tuzish;
- OTM ichki nazorati natijalari bo'yicha xisobot va xujjatlarni topshirish.


### **2.2.-chi tarkatma material:**

#### **Innovatsion ta'lim tizimida tizimli menejment yondoshuvi**

ISO 9000:2001 tamoyil va talablariga ko'ra "kutilayotgan natijaga erishishning samarali yo'li bu faoliyat va resurslarni jarayon sifatida boshqarishdir".

"Jarayon" tushunchasi ostida har qanday faoliyat yoki kompleks faoliyat tushunilib, "kirish" resurslarining (abiturientlar) "chiqish" resurslariga (bitiruvchilar) aylantirish nazarda tutiladi.

#### **Universitetni tizimli boshqarish modeli:**




Har qanday mahsulotni hayotiy davri bo'lganidek, ta'lim xizmati mahsuloti ISO 9001:2001 va DTS talablariga mos ravishda quyidagi ta'lim jarayonlarni o'ziga qamrab oladi:



Hozirgi sifat menejmenti tizimida Total Quality Management (TQM) to‘liq sifat yotib, u quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Iste’molchilarga yo‘naltirilganlik, joriy va istiqboldagi ehtiyoj va talablarga moslashtirish, bozor sharoitidagi tez o‘zgaruvchan sharoitlarga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash.
- Rahbarning liderlik xususiyati muassasa faoliyati va maqsadiga yo‘naltirilgan va uning natijaviy ko‘rsatkichlari samarasiga ijobiy ta’sir etish kerak.
- Barcha darajadagi xodimlarning, ularning qobiliyati iqtidoriga qarab o‘z faoliyatiga to‘liq jalb etish, ularning o‘z o‘zini namoyon etishga shart-sharoitlar yaratib berish.
- Mavjud resurslarni samarali boshqarish va faoliyat jarayoniga tizimli yondoshish.
  - Menejmentga tizimli yondoshish.
  - Muntazam ravishda OTM faoliyatini takomillashtirish.
  - Faktlar, taxlillar asosida qaror qabul qilish.
  - O‘zaro manfaatli xamkorlikni o‘rnatish.

Shunday qilib sifat menejmenti tizimi xalqaro oliy ta’lim tizimida yagona standartlar bilan ishlash, kadrlarni mobilligini ta’minlash, ular diplomlarini konvertirlanishini ta’minlashga chuqur asos bo‘ladi.



OTM ichki monitoringi nazorat jarayoni fakultetlar, kafedralar fakultetning to'rta yo'nalishi bo'yicha tekshiriuv olib boradi. Bu jarayon quyidagi bosqichlardan iborat:

- komissiya tarkibini tuzish, rais va nazorat yo'nalishi bo'yicha mas'ullar;
- komissiya tarkibi, tekshiriuv rejasi, grafikni rektor tomomnidan tasdiqlash;
- tekshiruv rejasiga ko'ra komissiyaning tegishli yo'nalishlar bo'yicha naoratini tahlil etish;
- tekshiruv natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar tayyorlash;
- bo'liim rahbarining tekshiruv natijalari bilan tanishtirishg;
- universitet, institut, fakultet ilmiy kengashlarida komissiya raislarining axboroti;
- tekshiruv natijalarida aniqlangan kamchiliklar bo'yicha o'tkaziladigan xarakterli choralari bo'yicha qaror qabul qilish.

Universitet, institut darajasida fakultet va kafedralarning o'quv jarayoni sifati, tashkil etilganligi quyidagi ko'rsatkich va indikatorlar bilan nazorat qilinadi:

- me'yoriy xujjatlarning holati
- ishchi-o'quv rejalarining holati;
- fan bo'yicha ishchi dasturlarning sifati;
- professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati, saviyasi, bilim darajasi (talabalar so'rovnomasiga asosida tekshiriladi);
- bitiruvchilar bilan tashkiliy ishlarning bajarilishi;
- kasbga yo'naltirish ishlarining olib borilishi;
- o'quva faoliyatini tashkil etilganligi;
- professor-o'qituvchilarning malakaviy darajasi;
- o'quv-uslubiy ta'minlanganlik;
- attestatsiyani tashkil etish;
- joriy va yakuniy nazoartni tashkidl etish;
- oraliq attestatsiyasini tashkil etish;
- talabalar amaliyotini tashkil etish;

- ta’lim jarayonining moddiy-texnik ta’minoti;
- ta’lim jarayonini axborot kompyuter texnologiyalar bilan ta’minlanganligi;
- ta’lim sifatini boshqarish;
- kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish;
- mashg‘ulotlar sifatini nazorat qilish.

Barcha ko‘rsatkichlarni baholash tizimini yondoshilgan tahlil, uning tashhizining funksiyasi, xato va kamchiliklarni bartaraf etsh bo‘o‘yicha chora-tadbirlarni barcha boshqarish pog‘onalarida (rektor, prorektor, dekan, kafedra mudirlarini) o‘tkazilishi ta’lim sifatini boshqarishda Xalqaro Sifat Menejmenti standardlariga yaqinlashishga olib keladi.

## V. GLOSSARIY

## V. GLOSSARY

**Darslik** — muayyan o‘quv fanining mavzulari tizimli, chuqur va to‘liq yoritilgan, tegishli fan mazmunini belgilangan hajmda mukammal o‘zlashtirishga qaratilgan, mazmunan va shaklan ta’lim turlariga (o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim (bakalavriat, magistratura)) moslashtirilgan, o‘quvchi va talabalarda fanga taalluqli bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanishiga, ijodiy qobiliyatlar rivojlanishiga xizmat qiladigan, rasmiy tasdiqlanadigan asosiy o‘quv nashridir;

**O‘quv qo‘llanma** — darslikni qisman to‘ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo‘yicha tuzilgan va mavzularni zaruriy hajmda tizimli yoritib beradigan, fan asoslarining mukammal o‘zlashtirilishini ta’minlovchi, mazmunan va shaklan ta’lim turlariga (o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim (bakalavriat, magistratura)) moslashtirilgan, nazariy yoki amaliy mashq va mashg‘ulotlarga mo‘ljallangan, o‘quvchi va talabalarda fanga taalluqli bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanishiga xizmat qiladigan, rasmiy tasdiqlanadigan o‘quv nashridir;

**Uslubiy qo‘llanma** — professor-o‘qituvchilar va bilim oluvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda bir darsning maqsadi, dars o‘tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg‘ulotlar, qo‘sishimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan, ta’lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr;

**Uslubiy ko‘rsatma** — muayyan fanning o‘quv dasturi bo‘yicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya va amaliy ishlarni, shuningdek bitiruvchilarning bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalarini bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalangan hamda ushbu fan bo‘yicha bilim oluvchilarda zarur amaliy ko‘nikmalar hosil qilishga mo‘ljallangan, ta’lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr;

**Uslubiy tavsiyanoma** — muayyan fanning o‘quv dasturi bo‘yicha mavzularning asosiy mazmunini yoki ayrim murakkab mavzular va masalalarni o‘zlashtirish, nazariy va amaliy vazifalar, topshiriqlarni bajarish bo‘yicha uslubiy yordam ko‘rsatish va pedagogik tavsiya berishga qaratilgan yordamchi o‘quv adabiyoti hisoblanadigan, ta’lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr;

**Ma'lumotlar to'plami (banki)** — foydalanishga qulay shaklda yaratilgan, muayyan fanni yoki ta'lim yo'nalishini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan, isbot talab qilmaydigan ma'lumotlar, ilmiy ko'rsatkich va o'lchamlar, turli belgi va raqamlardan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ishlab chiqarish, texnika, madaniy va boshqa sohalardagi qisqa ilmiy, amaliy, ma'lumotlardan tashkil topgan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr;

**Ma'ruzalar kursi** — fanning o'quv dasturi bo'yicha ma'ruzalar kursining nomi tegishli fan nomi bilan atalgan, undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari ko'rsatilgan, o'zini o'zi nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr;

**Ma'ruzalar to'plami** — muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari ko'rsatilgan, o'zini o'zi nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, ilmiy-tadqiqot izlanishlari asosida muntazam yangilanib turiladigan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr;

**Mashqlar (masalalar) to'plami** — muayyan fanning mavzulari bo'yicha amaliy mashqlar, masalalar, shuningdek ta'riflash, ifodalash, shakllantirish, hisoblash, ishlab chiqish bo'yicha misollar keltirilgan, mavzularga oid me'yoriy, uslubiy, sonli va tayanch ma'lumotlar bilan to'ldirilgan, o'quvchi va talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

**Lug'at** — aniq bir tartibda joylashgan so'zlar (yoki so'z birikmasi va hokazo) to'plami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimasi to'g'risida ma'lumot beruvchi yoki so'zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etilgan nashr;

**Daydjest** — ilmiy, ilmiy-uslubiy, o'quv, davriy adabiyotlar, qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltirilgan, sohalarga oid ma'lumotlar to'plami sifatida foydalaniladigan nashr.

**Modullilik tamoyili** — o'quv materialini hajmi bo'yicha kichik, ammo tarkibi bo'yicha bir butun bo'lgan modullardan (bo'limlardan) iborat bo'lgan

bo‘laklarga bo‘lib chiqilganligi;

**To‘liqlik tamoyili** — har bir yaratilayotgan bo‘lim (modul) uni tashkil etuvchi nazariy va amaliy qismlar, nazariy bilimlarni tekshirish bo‘yicha tuzilgan nazorat savollari (testlar), mustaqil yechish uchun topshiriq va amaliy ko‘nikmalarni o‘rganishga yo‘naltirilgan mashqlar, tajribalar va tegishli sharhlardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqligi;

**Ko‘rgazmalilik tamoyili** — har bir bo‘limda (modulda) yangi tushunchalar, fikrlar hamda uslublarni tushunarli va eslab qolishni yengillashtiruvchi matnlar hajmi o‘lchamlari kichik bo‘lgan kadrlarning ketma-ketligidan iborat bo‘lishi;

**Tarmoqlanish tamoyili** — har bir bo‘limlardan (modullardan) gipermatnli havolalar orqali boshqa bo‘limlar bilan bog‘lanish imkoniyatlari mavjudligi, o‘rganilayotgan fan materiallari cheklanmagan holda bosqichma-bosqich o‘zlashtirib borish imkonini bo‘lishi.

**Boshqaruvchanlik tamoyili** — ta’lim oluvchilar ekranda tasvirlanadigan kadrlarning almashuvini o‘zlari mustaqil boshqara olishlari, istalgan mavzu yoki ma’lumotlarni, tushunchalar, fikrlar, illustrasiya materiallari va multimediyalarni ekranga chiqarish imkoniga ega bo‘lishi, o‘quvchi va ta’lim oluvchilarga bilim va ko‘nikmalarni nazorat savollari, testlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali tekshirish imkoniyati mavjudligi;

**Ko‘nikuvchanlik tamoyili** — elektron darslik o‘quv jarayonida aniq foydalanuvchi ehtiyojlariga ko‘nikib borishini ta’minlashi, o‘rganilayotgan materialning chuqurligi va murakkabligini hamda ta’lim oluvchining kelgusi ta’lim bosqichiga bog‘liq holda amaliy yo‘naltirilganligini o‘zgartirib borishga imkoniyat yaratishi, foydalanuvchilar o‘z ehtiyojlariga ko‘ra qo‘srimcha illustrasiya materiallarini yuzaga keltira olishlari, o‘rganilayotgan tushunchalarni chizma va geometrik jihatdan talqin qila olishlariga xizmat qilishi;

**Kompyuterli qo‘llab quvvatlash tamoyili** — ta’lim oluvchilar o‘rganish jarayonining istalgan paytida o‘quv materialining mohiyatiga o‘ziga diqqatni jalg etishga undovchi topshiriq va masalalarni qarab chiqish hamda ularni bajarishda kompyuterdan foydalanishlari uchun sharoit mavjudligi. Elektron o‘quv adabiyotini kompyuterda o‘rganishda murakkab almashtirish amallarini, turli xil hisoblashlarni va grafiklarni tuzib chiqish, rasm va sxemalarni chizish, murakkab darajadagi turli amallarni bajarish imkoniyatlari mavjudligi;

**Yig‘iluvchanlik tamoyili** — elektron darslikni yangi bo‘limlar va mavzular, fan va texnika yangiliklari bilan kengaytirib va to‘ldirib borishga imkon berishi hamda maxsus va alohida fanlar bo‘yicha elektron kutubxonalarini yoki ta’lim oluvchilar, (u o‘qiyotgan mutaxassislik va kursga mos holda) o‘qituvchilar yoki tadqiqotchilarning xususiy elektron kutubxonalarini shakllantirishiga imkon

yaratishi.

**Moslashuvchanlik talabi** — elektron darslik ta'lim oluvchining xususiy imkoniyatlariga, ya'ni o'qitish jarayonida ta'lim oluvchining bilimi, ko'nikmalari va psixologik xususiyatlariga moslashtirilgan bo'lishi;

**O'qitishning interfaollik talabi** — elektron darslik o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi bilan o'zaro hamkorlikni ta'minlashi, interfaol muloqot va qaytarma aloqani ta'minlashi;

**Vizuallashtirish talabi** — elektron darslik o'quv axborotini taqdim qilishida kompyuter vizuallashtirish imkoniyatlarini joriy qilish zarurligi;

**Ta'lim oluvchining intellektual qobiliyatini rivojlantirish talabi** — fikrlash, murakkab vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qila olish mahorati, axborotga ishlov berish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga imkon berishi;

**Tizimlilik talabi** — elektron darslik o'quv materialini namoyish qilishning tizimlilik va funksional bog'liqligini, to'liqligini va uzlucksizligini ta'minlashi.

## VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

## VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lism to‘g‘risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2000 yil 25 iyuldagи «Rasmiy davlat hujjatlarini tayyorlash, hisobga olish, saqlash, topshirish hamda ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 283-son qaror qabul qilindi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 iyuldagи “Ta'lism muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 2 noyabrdagi “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1426-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil maydagи “Oliy ta'lism muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1533- sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 27 iyundagi “O'zbekiston Respublikasining milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1989-son Qarori.
8. Karimov I.A. O'zbekiston erishgan yutuq va marralar — biz tanlagan islohotlar yo‘lining tasdig‘idir. 22-jild. – T.: «O'zbekiston», 2014. –80-b.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 24 iyuldagи «Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi PF-4456-son farmoni;
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi «Oliy ta'lism muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4732-son farmoni;
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagи «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta'lism tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi PF-4958-son farmoni;
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 dekabrdagi «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta'lism hamda oliy mala kali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tizimini takomillash tirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 365-son qarori;

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi «Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida» 2001 yil 16 avgustdagи 343-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi 3-son qarori;

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 20 avgustdagи «Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 242-son qarori;

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 25 avgustdagи «O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga pedagogik faoliyat samaradorligi va sifatini oshirish bilan bog‘liq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 246-son qarori

### **Internet saytlar.**

11. <http://www.ziyonet.uz>
12. <http://uz.denemetr.com/download/docs-229149/768-229149.doc>
13. <http://www.nasa.gov/statistics>
14. <http://www.security.uz>
15. <http://www.cert.uz>
16. <http://www.uzinfocom.uz>
17. <http://idum.uz/archives/9376>
18. <http://gtmarket.ru/ratings/e-government-survey/info>
19. <http://egovernment.uz/uz>
20. <http://www.tadviser.ru/index.php>